

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QISHLOQ XO‘JALIGI VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI
Umumiy zootexniya kafedrası**

**BAKALAVRIAT 5410100–Veterinariya ta'lim yo‘nalishi
4-96- GURUH TALABASI**

ABDUHAKIMOV SHAHZODNING

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: Qoramollarda teri kasalliklaridan “trixifitiya”ni oldini olish va
davolash**

**Ilmiy rahbar, umumiy
zootexniya kafedrası
dotsenti O. M. Sharipov.**

“Ish ko‘rib chiqildi va himoyaga ruxsat etildi”

Umumiy zootexniya kafedrası mudiri,
q.x.f.d, dotsent _____ O‘.R.Soatov
bayonnoma №__ «__» _____ 2020 yil

Ipakchilik va tutchilik fakul’teti
dekani, dotsent _____ N.O.Rajabov.
“ ____ ” _____ 2020 y.

TOSHKENT-2020 yil

	MUNDARIJA	
	KIRISH	3
1.	1. ADABIYOTLAR SHARHI	8
2.	2. ASOSIY QISM	
3.	2.1 Mavzini asoslash, maqsad va vazifalar.	12
4.	2.2 Tadqiqotning dolzarbligi.	13
5.	3. TADQIQOT MATERIALLARI VA USULLARI	15
6.	4. TADQIQOTLAR NATIJALARI	17
7.	4.1 Trixofitiya kasalligi, qo'zg'atuvchisi va uning turlari uchrash hududlari.	17
8.	4.2 Epiztologik ma'lumotlar va patogenezi	22
9.	4.3 Kasallikning kechishi, klinik belgilari va shakllari	24
10.	4.4 Teri kasalliklaridan Trixofitiya diagnozi	30
11.	4.5 Trixofitiya kasalligini boshqa kasalliklardan farqlash	31
12.	4.6 Kasallikni davolash chora tadbirlari	32
13.	4.7 Trixofitiya kasalligida immunitetning roli va vaksinalar	35
14.	4.8 Kasallikka qarshi kurashish chora tadbirlari, dezinfeksiya qilish usullari va turlari	41
15.	4.9. Molxonadagi mikroiklim ko'rsatkichlarini qoramollarni fiziologik holati hamda trixofitiya kasalligiga ta'siri	45
16.	4.10 Tadqiqotlarning iqtisodiy samaradorligi	50
17.	4.11 Veterinariya qonunchiligida temiratki kasalligiga qarshi kurashish bo'yicha yo'riqnomalar.	51
18.	5. XULOSALAR	54
19.	6. AMALIY TAKLIF VA TAVSIYALAR	55
20.	7. VETRINARIYA ISHINI TASHKIL ETISH	56
21.	8. HAYOT HAVSIZLIGI	58
22.	9. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	62
23.	ILOVALAR	65

KIRISH

Keyingi yillarda Respublikamiz aholisini sifatli chorvachilik mahsulotlari bilan yetarli miqdorda ta'minlash hozirgi davrning dolzarb muammosi hisoblanadi. Bunday mas'uliyatli vazifani bajarishda chorvadorlarimiz hamda veterinariya mutaxassislari bir qator qiyinchilik va muammolarga duch kelmoqda. Birinchidan, hayvonlar bosh sonini ko'paytirish lozim bo'lsa, ikkinchidan ulardan olinayotgan mahsulotlarning miqdorini oshirish va sifatini ta'minlash talab etiladi.

Bu borada Respublikamiz Prezidentining 2006 yil 23 martdagi «Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarini ko'paytirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi PQ-308 va 2008 yil 21 apreldagi «Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarini ko'paytirishni rag'batlantirishni kuchaytirish hamda chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ - 842 sonli, 2015 yil 29 dekabrda qabul qilingan «2016-2020 yillarda qishloq xo'jaligini yanada isloh qilish va rivojlantirish to'g'risida» gi PQ - 2460 sonli qarorlari soha rivojiga katta zamin yaratmokda.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 2015 yil 29 dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Veterinariya to'g'risidagi» Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 iyundagi PF-5067-sonli «Davlat veterinariya xizmati boshqaruv tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi Farmoni va PQ-3026-sonli «O'zbekiston Respublikasi Davlat veterinariya qo'mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori mamlakatimizda chorvachilikni rivojlantirishda asosiy dastur bo'lib xizmat qiladi.

Respublikada chorvachilik tarmog'ini yanada rivojlantirish, naslchilik-selektsiya ishlarini yuritishning ilmiy asoslangan innovatsion uslublarini joriy etish, sun'iy urug'lantirishni tizimli tashkil etish, qishloq xo'jaligi hayvonlari orasida epizootik osoyishtalik hamda oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini

ta'minlash maqsadida 2019 yil 28 martda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Veterinariya va chorvachilik sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-5696-sonli Farmoni va "Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" PQ-4254-sonli qarori qabul qilindi.

Mazkur Xukumat hujjatlari bilan yangi tashkil etilgan qo'mitani mamlakatimizda chorvachilik va veterinariya sohasida yagona davlat siyosatini olib borishdagi asosiy vazifa va yo'nalishlari beligilab berildi.

Qo'mitaning asosiy vazifalari etib:

normativ-huquqiy hujjatlarni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, sohada davlat, xo'jalik boshqaruvi organlari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarining o'zaro hamkorligini muvofiqlashtirish, veterinariya faoliyatini litsenziyalashni amalga oshirish;

veterinariya sohasi va chorvachilikni barcha tarmoqlarini, shu jumladan qoramolchilik, qo'ychilik, qorako'lchilik, echkichilik, yilqichilik, parrandachilik, baliqchilik, asalarichilik va quyunchilikni rivojlantirish, naslchilik-selektsiya ishlarini muvofiqlashtirish hamda ushbu yo'nalishlar bo'yicha maqsadli davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

mamlakat hududlarini hayvonlarning yuqumli kasalliklari kirib kelishidan himoya qilishni ta'minlash, hayvonlar kasalliklari profilaktikasining va ularni davolashning zamonaviy usullarini amaliyotga joriy etish, mahalliy va xorijiy fan yutuqlarini tatbiq etish asosida veterinariya dori vositalarining yangi turlari va shakllarini ishlab chiqarishni tashkil etish;

chorvachilik tarmoqlarida hayvonlarni identifikatsiya qilish, ularni hisobga olish, hisobdan chiqarish va saqlash ishlarini tashkil etish, qishloq xo'jaligi hayvonlarini zoti bo'yicha rayonlashtirish;

veterinariya va naslchilik-selektsiya sohalarida ilmiy, uslubiy va ta'lim salohiyatini har tomonlama rivojlantirish, ilmiy tadqiqotlar yo'nalishlarini belgilash, fundamental va amaliy tadqiqotlar, innovatsiya ishlanmalari natijalarini veterinariya va naslchilik-selektsiya amaliyotiga joriy etilishini muvofiqlashtirish;

chorvachilik mahsulotlarini xalqaro talablarga muvofiq sertifikatlashtirish va standartlashtirishni ta'minlash, sifat menejmentining zamonaviy usullarini keng joriy etish, veterinariya va chorvachilik sohalariga xorijiy investitsiyalar va grant mablag'larini jalb qilish;

soha kadrlarini tizimli tayyorlash, ularning malakasini oshirish va qayta tayyorlashni tashkil etish, rahbar hamda mutaxassislarning ish uslubi va shakllarini takomillashtirish belgilandi.

Qaror bilan aholi uchun ichki iste'mol bozorini sifatli go'sht va go'sht mahsulotlari bilan uzluksiz ta'minlash, go'sht narxining barqarorligini saqlash maqsadida 2019 - 2021 yillarda har bir tumanda qoramollarni bo'rdoqiga boqishga ixtisoslashgan kamida ikkitadan 300 — 500 boshga mo'ljallangan zamonaviy komplekslarni;

ichki iste'mol bozorini sifatli sut va sut mahsulotlari bilan uzluksiz ta'minlash, sut narxining barqarorligini saqlash maqsadida har bir tumanda kamida ikkitadan 250 — 300 boshga mo'ljallangan sut yo'nalishidagi korxonalarni tashkil etish belgilandi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan "Veterinariya to'g'risida" gi Qonun, veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish borasidagi Prezident qarorlari, chorvachilikni rivojlantirish bo'yicha qabul qilinayotgan dasturlar mamlakatimizda chorvachilik va veterinariya xizmatini rivojlantirishda muhim dasturi amal bo'lib xizmat qilmoqda.

Respublikamizda chorva mollari bosh sonini ko'paytirish, naslini yaxshilash, mahsuldorligini oshirish maqsadida 2006-2017 yillar davomida xorijdan 80 ming boshga yaqin yuqori mahsuldor naslli qoramollar keltirilib chorvachilik xo'jaliklarida urchitilib kelinmoqda. Bugungi kunda ulardan 350.000 boshdan ortiq

sogʻlom naslli buzoqlar olinib bosh soni yil sayin koʻpayib bormoqda. Ayniqsa, keyingi yillarda Respublikamizga qoʻshni Qozigʻiston Respublikasidan qozoqi oqboosh zotli qoramollarni olib kelish holatlari ancha koʻpaydi. Bu zotdagi qoramollarni ham arzon ham masofaning yaqinligi sababli transport xarajatlari koʻpga tushmaydi.

Oʻzbekiston respublikasi prezidenti qarori: Samarqand veterinariya meditsinasi institutini tashkil etish toʻgʻrisida. (PQ-3703 08.05.2018) 2017 — 2021-

yillarda Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar strategiyasida nazarda tutilgan islohotlar doirasida yuqori malakali, chuqur nazariy bilim va amaliy koʻnikmalarga ega boʻlgan kadrlarni tayyorlash borasida bir qator tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Veterinariya sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish, hayvonlarning sogʻligʻini saqlash boʻyicha samarali ishlarni tashkil etish, davlat veterinariya nazoratini kuchaytirish va veterinariya servisi sifatini oshirish, epizootik osoyishtalikni va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini taʼminlash, ichki va tashqi bozorlarda talab yuqori boʻlgan raqobatbardosh va kelib chiqishi hayvonotga mansub mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, veterinariya xizmati tizimini yanada rivojlantirish maqsadida Davlat veterinariya qoʻmitasi tashkil etildi.

Qoramollarni turli ekologik iqlim sharoitlarda asrash va parvarishlash jarayonida veterinariya - sanitariya qoidalariga rioya qilmaslik natijasida ularning mahsuldorligi, organizmni tabiiy chidamliligi (immunitet) pasayib turli xil kasalliklar va shu jumladan teri kasalliklariga chalinishi sabab boʻlmoqda, buning oqibatida esa chorvachilikka iqtisodiy zarar yetmoqda.

Soʻnggi yillarda chorvachilik komplekslarida yoki chorva mollari saqlanadigan inshootlarda qoramollarda teri kasalliklari uchramoqda. Bunday dermatitlarga misol qilib trixofitiya yaʼni temirartki kasalligini olsak boʻladi. Trixofitiya – yuqumli zamburugʻ kasalligi hisoblanadi. Trixofitiya asosan teri va teri ortiqlarini

(tirnoq va sochlarni) zararlaydi. Mahalliy tilda bu kasallik “ temiratki ” ham deyiladi. Barcha zamburug‘ kasalliklari singari bu kasallik ham mavsumiylikka xos.

Temiratki dermatomikozlarga kiruvchi kasallik bo‘lib, juda qadimdan ma‘lum bo‘lgan. Ammo dermatofitlar dermatomikoz kasalliklarining qo‘zg‘atuvchilari ekanligi XIX asrning o‘rtalarida aniqlangan, trixofitoz, mikrosporoza, favus kasalliklarining qo‘zg‘atuvchilari kashf etilgan. Ularning morfo-fiziologik, virulentlik, patogenlik, tinktorial, kulʼtural xususiyatlari tajribalarda o‘rganilgan. Trixofitiya kasalligi so‘ngi yillarda nafaqat yurtimizda balki qo‘shni davlatlarda, yevropa mamlakatlarida keng tarqalgan teri kasalligi bo‘lib hisoblanadi. Xususan yevropa davlatlarida poda bo‘lib boqilgan qoramollarda bu kasallikning uchrash ehtimoli 40% ni tashkil etmoqda. Bu ko‘rsatkichdan ko‘rinib turibdiki trixofitiya kasalligi katta iqtisodiy zararga ham olib kelmoqda. Trixofitiya kasalligi bilan asosan qoramollar zararlanadi. Buzoqlar bu kasallikni yuqtirib olish xavfi juda katta. Sigir va xo‘kizlarga qaraganda buzoqlarda ko‘p uchraydi. Trixofitiya kasalligi odamlarda ham uchraydi shuning uchun bu kasallik zooantrapanoz kasalligi hisoblanadi. Teri kasalliklari shu jumladan trixofitiya kasalligi yevropada va qo‘shni davlatlardan keltirayotgan qoramollarda ham uchrashi tabiiy holat. Shunday ekan, Respublikamizga xorijdan keltirilayotgan yuqori mahsuldor naslli sigirlar o‘rtasida uchraydigan yelin kasalliklari, tuyuq chirishi va teri kasalliklarini o‘rganish, qoramolchilik xo‘jaliklarida ushbu kasalliklarni kelib chiqish sabablarini o‘rganish hamda mazkur kasalliklarni oldini olish va davolashning yuqori samarador usul hamda vositalarini ishlab chiqish muhim vazifalardan hisoblanadi.

I. Bob. ADABIYOTLAR SHARHI

Qoramollarda teri kasalliklarini (trixofitiya) turli xil shakllarda tarqalishi, kelib chiqishi, kechishi hamda davom etish sabablarini o‘rganish unga tashhis qo‘yish usullarini ishlab chiqish, davolash va oldini olish hamda boshqa chora-tadbirlarni amalga oshirish bo‘yicha bir

qator olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilganligi adabiy manbalarda aks ettirilgan.

1841-1843 yillari A. A. Kazenov bosh sochida trixofitiya qo'zg'atuvchisini aniqlagan va Herpes tonsurans deb nomlagan. Malmstem 1845 yili trixofitiya kasalligi qo'zg'atuvchisini Trichophyton XIX asrning o'rtalarida o'simliklar zamburug'i deb nomlagan. 1858 yili tadqiqotchi A.Ardi trixofitiya terminini fanga kiritgan.

XX asrning oxirlarida (1970-1980) professor A.X.Sarkisov rahbarligida qoramollarning temiratkisiga qarshi juda samarali profilaktik ham maxsus terapevtik vosita sifatida qo'llaniladigan LTF -130 vaktsinasi kashf etildi. Temiratki bo'yicha O'zbekistonda SamQXI epizootologiya kafedrasini mudirlari, prof. Sh.T. Rasulov, M.P. Parmanov, fan nomzodlari A. B. Li, E. Ibragimovlar qo'p tadqiqotlar olib borgan. M.P.Parmanov qo'ylarning trixofitiasiga qarshi Trixovis vaktsinasini yaratdi. XX asr boshlarida R. Saburo ixtiro qilgan zamburug'lar kulbtural xususiyatini o'rganishdagi maxsus oziqa muhiti hozir ham ishlatilib kelinmoqda.

Sobiq Ittifoq davrida LTF-130 vaktsinasining reja asosida qo'llanilishi tufayli qariyb hamma joylarda temiratki keskin kamaydi. Faqat vaktsina bilan ta'minlanmagan joylardagina ushbu kasallik qayd qilinadi.

Kasal mol kasallik qo'zg'atuvchisining manbai hisoblanadi. L. X. Sarkisov, L. I. Moskov, V. P. Korolevalar (1956) qoramollarda trixofitiya yil davomida, asosan qishda, erta bahor, kech kuz oylarida kamroq, yozda juda kam uchrashini qayd qilib o'tdilar. Sh. T. Rasulov (1970) O'zbekistonda ham qoramollar trixofitiasini qish oylarida avjga chiqib, asosan bir yoshgacha bo'lgan buzoqlar kasallanishini uqtirib o'tadi. F. Zalixanova, Ye. Marininlar (1972) Kabardin Bolqor AR va Vologda viloyatida kuz-qish oylarida temiratkinining kuchayishini qayd qilib o'tadilar. 1960-1970 yillarda nashr etilgan temiratkiga oid adabiyotlarni tahlil qilgudek bo'lsak, kasallik asosan buzoqlar orasida avgust-sentyabr oylarida boshlanib, qish oylarida avjga chiqishi qayd qilingan.

Yilqilar temiratkisi. Sobiq Ittifoqda 1930-yillar arafasida yilqilar temiratkisi keng tarqalganligi qayd etilgan. Kasallik yil davomida kuzatilgan. Masalan, ippodromlarda yilning har qanday faslida uchragan, chunki bu yerga yilqilar butun yil davomida olib kelinaveradi. Ot zavodlarida esa ularning qulunlashiga bog'liq. S. V. Petrovich va V. V. Adsryushinlar temiratki hamma yoshdagi yilqilar, lekin asosan qulunlarda uchrashini yozadilar. Ular kasallikning tarqalishida yilqilarning jinsi, zoti, rangining ahamiyati yo'qligini isbot etdilar. Tabiiy sharoitda qulunlar 2 oylikdan boshlab kasallanadi. Kasallik ayniqsa kuzda ular orasida keng tarqalib, avval kasallangan biya va otlar saqlangan binolarga kiritilganda avjiga chiqqan.

Tuyalar temiratkisi. S. Xamiyev (1987) kasallikning tarqalishiga bo'taloqlarning kasal tuyalar bilan kontaktda bo'lishi va ularning oriqligi sabab bo'ladi, deb ko'rsatdi. Ayniqsa, bu hol bo'taloqlar avval kasalga chalingan tuyalar saqlangan joyda boqilganda yaqqol ko'zga tashlanadi. Bo'taloqlarning kasalga chalinishi oktyabr oylariga to'g'ri kelib, bu paytda ular 5—6 oylik bo'ladi. Kasallik ayrim hollarda 2—3 yashar tuyalarda ham uchrab turadi, Biz «Mingbuloq» qishlog'ida 3 yashar tuyaning o'ta og'ir trixofitiyaga chalinganligining guvohimiz.

M. Azimov (1961) zebularda kasallikni qayd qilib, u asosan bir oylikdan 1 yoshgacha bo'lganlarida uchraydi deb uqtiradi. Nutriyalar va boshqa mo'ynali hayvonlar orasida ham temiratki juda tez tarqaladi. Qisqa muddat ichida kasallik 70—80 foizgacha tarqab, katta iqtisodiy zarar yetkazadi. Bunday bo'lishiga asosiy sabab, ular bino ichida katakchalarda saqlanadi (RFR), bizning sharoitimizda esa katta sim to'r qafaslarda ochiq havoda saqlanganligi uchun bu darajada tarqalmaydi.

Kasallik quyonlar orasida ham keng tarqalib, ayrim hollarda 86—93 foizgacha yotadi. Kasallanish bahor — yoz oylariga to'g'ri kelib, asosan yosh quyonchalarda kuzatiladi. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda qish oylarida ham ko'p uchraydi (L. Nikiforov).

Temiratki bilan kemiruvchilar ham kasallanib, ular ba'zan qishloq ho'jalik

hayvonlari uchun kasallik qo'zg'atuvchisining manbai bo'lib qolishi mumkin.

2. ASOSIY QISM

2.1 Mavzini asoslash, maqsad va vazifalar.

Mavzuning muhimligi shundaki, bugungi kunda chorvachilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarida qoramollarni saqlab qolish, ya'ni ularning turli xildagi kasalliklarini oldini olish, sog'lom buzoq olishni ta'minlash va hayvonlardan olinayotgan sut va go'sht mahsulotlari miqdorini oshirish veterinariya mutaxassislari hamda olimlari oldidagi mas'uliyatli vazifalardan biri hisoblanadi.

Teri qoplami – *integumentum commune* bevosita tashqi muhit bilan bog'langan, jun bilan qoplangan tanani o'rab turuvchi tashqi pardadir. Teri qoplami xayvon organizmi uchun juda muhim ko'pgina vazifalarni bajaradi, ya'ni, sezish, issiqlikni muvofiqlashtirish, ajratish, nafas olish, so'rish va hokazolar. Terining bu vazifalarini barchasi organizmning javob reaksiyasini turli ko'rinishi bo'lib xisoblanadi.

Teri – *cutis* – epidermis, asosiy chin teri va teri osti qavatidan iborat.

Epidermis – *epidermis* qalin ko'p qavatli epiteliy to'qimasidan tashkil topgan bo'lib, teri asosidan u asosiy parda (membrana) – *membrana basilaris* orqali ajralib turadi. Unda epidermisning ishlab chiqaruvchi qavati joylashadi. Bu qavatning hujayralari ko'payishi natijasida qavatning yuzasiga chiqadi, qariydi, quriydi hamda birmuncha qalinlashadi. So'ngra shox moddaga aylanadi, ohir – oqibat to'rsimon varaqcha (plastinka) ga aylanib, terini har xil mexanik shikastlanish, qurib qolishdan saqlaydi. Terining bu qavati doimo yangilanib turadi. Yangilanish, ya'ni epidermisning ko'chib turishi jarayonida teri har xil mikroorganizmlardan hamda kirlanishdan tozalanib turadi. Terining epidermis qavatida pigment hujayralari ishlab chiqiladi (keratin), qon tomirlari bo'lmaydi. Epidermisning oziqlanishi osmotik (so'rilish) yo'l bilan kechadi.

Asosiy, ya'ni chin teri – *derma* tig'iz, shakllangan biriktiruvchi to'qimadan tuzilgan bo'lib, unda yog' va ter bezlari, arteriya, vena, limfa tomirlari, kapillyarlar, nerv tomirlari, sezish, jun ildizi, silliq mushak tuqimalari joylashadi. Bu qavatning qalinligi hayvonlarning turiga, uning boqilish sharoitiga, yoshiga,


jinsiga bog‘liq bo‘ladi. Masalan, eng qalini – qoramolda, eng yupqasi – qo‘y va echkida; qari hayvonlarda yoshlariga nisbatan qalin; oyoqning yon yuzasida qalin, ichki yuzasida yupqa bo‘ladi.

Chin teri yuza so‘rg‘ichli hamda chuqur to‘rli qismlardan iborat.

So‘rg‘ichli qavati – yumshoq tovonda va terining boshqa junsiz qismlarida yaxshi rivojlangan. Junli terida u yaxshi taraqqiylashmagan. So‘rg‘ichlarning ko‘p bo‘lishligi chin terini epidermis bilan jipslanish yuzasini oshiradi.

To‘rli qavati – birmuncha chuqurroqda joylashgan bo‘lib, u sekin – asta teri osti katlamiga aylanib boradi.

Teri osti qatlami – *stratum subcutis* siyrak biriktiruvchi to‘qimalardan tuzilgan bo‘lib, chin terini fazalarga va mushaklarga birlashtirib turadi. Ayrim



Teri qoplami A-tuzilish sxemasi, I- epidermis, II-teri asosi, III-teri osti qavati, IV-sezuvchi jun, V,V-qoplovchi jun uning folikulasi, 1-jun poyachasi,2- jun ildizi,3-jun ildizi, 4-jun so‘rg‘ichi, 5-jun g‘ilofchasi, 6-ildiz xaltachasi 7-yog‘ bezi 8-ter bezi 9-junni ko‘taruvchi muskul 10-jun xaltachasi bo‘shlig‘i 11- yangi jun 12-almashuvchi

Teri hosilalariga jun kiradi. U teri kasalliklaridan trixofitiya kasalligi kechishida to‘kilib ketadi

Jun – *pilus* epidermisning shox moddasi hujayralaridan tarkib topgan organ bo‘lib, qattiq elastik ipchalar ko‘rinishiga ega. Junning tashqi qavatini qalin hujayralardan iborat to‘qima – *cuticula* tashkil etadi. Kutikulaning asosida yo‘g‘on po‘stloq qavati – *stratum corticales* bo‘lib, pigmentli uzun xujayralardan tuzilgan, qaysikim, junning rangini aniqlaydi. Junning markazida yumaloq, ko‘p qirrali va kubsimon hujayralardan tashkil topgan mag‘iz qavati – *stratum centrale* joylashadi.

Jun o‘qi yoki poyasi – *scapus pili* – teri yuzasiga chiqib turadi.

Jun ildizi – *radix pili* va **jun piyozchasi** - *bulbus pili* chin terida joylashgan bo‘ladi.

Chin teridan **jun so‘rg‘ichi** – *papilla pili* hosil bo‘lib, u o‘z qalpoqchasi bilan jun piyozchasini qoplab turadi va uning hisobidan junning oziqlanishi hamda o‘sishi kechadi.

Jun ildizi va piyozchasi follikula – *folliculus pili* ichiga kirib turadi. Follikula epidermisdan hosil bo‘lgan ildiz qini – *vagina radix* dan hamda chin teridan hosil bo‘lgan jun xaltachasidan iborat.

Jun xaltasidan epidermisga tomon junni ko‘taruvchi muskul tolalari – *m.m.arrestares pilarum* yo‘naladi. Bu muskul tolalari ta’sirida jun ko‘tarilish qobiliyatiga ega bo‘ladi.

Jun teridan ayrim hayvonlarda yakka holda (qoramol, otlarda) chiqsa, boshqalarida guruh-guruh (cho‘chqa, itlarda) bo‘lib chiqadi. Ular qiyshiq yo‘nalishda hamda har tomonlama o‘sadi va bunga jun oqimi – *flumen pilorum* deyiladi. Jun terining har xil joyida har xil uzunlikda va qalinlikda bo‘ladi. Ular tuzilishiga ko‘ra qoplovchi, dag‘al, mahsulot beruvchi hamda sinuoz xilda bo‘ladi. Qoplovchi jun – unchalik uzun va qalin bo‘lmaydi, jun o‘zagi bor bo‘lib, u mahsulot tayyorlash uchun ishlatilmaydi. Dag‘al junlar o‘zagi yaxshi rivojlangan; bularga boshdagi kokil, quloqdagi junlar, kiprik kabilar kiradi. Uzun jun yo‘g‘on va dag‘al bo‘lib, yoldagi, dumdagi junlar kiradi. Sinuoz jun – juda yo‘g‘on va uzun bo‘ladi, ular lab atrofida, ko‘z atrofida, burun atrofida joylashib, ularda jun xaltasida qon tomirlar sinusi bo‘ladi. SHuning uchun ham ta’sirni sezuvchi junlar

deb ataladi, ularda nerv tolalari uchi ko'p bo'ladi. Bu junlar birmuncha chuqurroqda joylashadi va chin teri hamda osti qavatini qoplab oladi. Bu junlar hech qachon tushmaydi. Jun qoplami vaqt o'tishi bilan tushib uning o'rniga yangi jun o'sib chiqadi, ya'ni tullash sodir bo'ladi. Mahsulot beruvchi junlarga qo'y, echki, tuyaning junlari kiradi. Yovvoyi hayvonlarning tullashi ma'lum bir belgilangan vaqtda bo'ladi. Qo'y va cho'chqalarning tullashi asta-sekinlik bilan aniq bo'lmagan vaqtda kechadi.

Qoramol va otlarda aralash tipdagi tullash bo'ladi. Jun hayvon organizmini sovuqdan hamda terini har xil mexanik ta'sirotlardan saqlash uchun ham xizmat qiladi. Otlarda uzun junlari: yol – *juba*; dum – *cerrus caudae*; to'pig'ining popugi – *cerrus pedis*; kokili – *cerrus capitis* ni hosil qiladi.

Qoramollarda teri kasalliklari asosan terini yuqa qatlamlarida uchraydi. Bu kasallik iqtisodiy zarar ham yetqazadi. Kasallikka chalingan mollarning o'sish va rivojlanishi keskin pasayadi. Mo'ynali hayvonlarning mo'ynasi buziladi. Qo'ylarda jun olish kamayadi. Davolash ancha uzoq cho'ziladi va mablag' sarflash talab etiladi. Eng xavfli tomoni kasallikning odamlarga yuqishidir. Kasal hayvon vazni 1,2-2,5 kg gacha kamayadi.

Kasallik katta iqtisodiy zarar etkazadi, bu esa yosh hayvonlarning tirik vazni (32% gacha), sut sog'ib olinishi kamayishidan iborat. qoramollarning teri va mo'yna xom ashyosi sifatini pasaytiradi, davolash ishlari uzoq vaqtgacha cho'zilishi va ko'p mablag' sarflanishiga olib keladi. (Алешкевич В.Н. Герасимчик В.А. Красочко П.А.)

Bugungi kunda yirik chorvachilik va chorvachilikka ixtisoslashgan xo'jaliklariga chetdan olib kelingan naslli qoramollarni saqlab qolish, ulardan yuqori sifatli sut va go'sht mahsuloti yetishtirish veterinariya mutaxassislari va olimlarga katta mas'uliyat yuklaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mavzuni bajarish jarayonida quyidagi vazifalarni maqsad qilib qo'ydik:

- naslli sigirlarni Respublikamizdagi turli iqlim sharoitlariga moslashish

- jarayonini kechishi, saqlash sharoiti, mollarning mahsuldorligi, buzoq olish, sut mahsuldorligi xususiyatlarini monitoringini yuritish;
- Respublikamiz fermer xo'jaliklarida qoramollarda teri kasalliklarini tarqalishini o'rganish;
 - Qoramollarda uchraydiga teri kasalliklaridan trixofitiya kasalligini tarqalish hududini va miqdor ko'rsatkichini aniqlash
 - Teri kasalliklarini ayniqsa Trixofitiya kasalligini aniqlashda (diagnostika) va davolashda yuqori samara beruvchi dori vositalarini aniqlash

Yuqoridagilarni inobatga olib, chetdan keltirilgan naslli mollarni mamlakatimizning tez o'zgaruvchan, ob-havo sharoitiga moslashuvchanligini o'rganish qatorida teri kasalliklari katta iqtisodiy zarar keltirishi, bu muammolarni o'rganish va kerakli tavsiyalarni berish veterinariya mutaxassislari oldida turgan jiddiy muammolardan biridir.

Trixofitiya teri kasalligi bo'lib hisoblanadi. Bu kasallik qo'zg'atuvchisi quyidagi zamburug'lar: *Trichophyton verricosum* qoramol, qo'ylarda, *Tr. yequinum* otlarda, *Tr. gypseum* cho'chqa, it, mushuk va kemiruvchilarda, *Tr. mentagrophytes* mo'ynali hayvonlarda va *Tr. sanis* itlarda temiratki kasallikg'ini qo'zg'atadi.. Ushbu zamburug'lar ko'pgina tur hayvonlarda kasallik qo'zg'atib, umumiy xususiyatlarga ega bo'lsada, bir-biridan ko'p jihatlari bilan farq qiladi. Kasal hayvondan olingan material mikroskop ostida tekshirilganda, artrosporalar zararlangan jun tolasi atrofida qator yoki tartibsiz joylashgan yarim yaltiroq doirasimon sharchalar shaklida ko'rinadi. Bu holat ijobiy deb baholanadi va keyinchalik sun'iy muhitlarga ekiladi. Sporalar o'lchami 3-8 mkm.

Ushbu zamburug'lar asosan suslo-agar, go'sht - peptonli 2% glyukoza qo'shilgan MPGA va Saburo agarlarida yaxshi o'sib, 3-4 haftadan keyin oqimtir momiqsimon koloniyalar paydo qiladi. Zamburug'lar hayvonlar turiga qarab, ozuqa muhitda terisimon, jigarrang, sarg'ish momiq holatlarda o'sadi. Ajratilganda esa mikrokonidiy va xlamidosporalar holatiga qarab farqlanadi.

Trixofiton verrikozum organizmda junni jarohatlab, unda o'sadi va ko'payadi, mitseliya giflari alohida-alohida artrosporalarga bo'linadi. Sun'iy ozuqa muhitda esa u gifdan tashqari jinssiz ko'payadigan mikrokonidii (aleyrilar) hosil qiladi. Faqat ozuqa muhitida hosil bo'ladigan mikrokonidiyalar-aleyrilar immunitet

shakllantirishi, mitseliylar esa immunitetga javobgar emasligi aniqlangan.

Qoramollarning sut, go'sht, teri qoplami sifatini oshirish uchun ularni turli xil teri kasalliklaridan himoya qilishimiz muhim ahamiyat kasb etadi.

2.2 Tadqiqotning dolzarbligi.

Yurtimizda farmer xo'jaliklarida va xonadonlarda parvarishlanayotgan qoramollar, shuningdek xorijdan olib kelinayotgan yuqori mahsuldor naslli qoramollarni Respublikamiz sharoitida to'liq saqlab qolishga erishish hamda sog'lom buzoq olish, nasldorlik xususiyatini saqlab qolish orqali hamda sut mahsuldorligini oshirishda Teri kasalliklari Trixofitiya kasalliklaridan saqlash va himoya qilishdan iboratdir. Bu tadbirlarni bajarish barobarida mamlakatimiz aholisini yuqori sifatli chorvachilik mahsuloti bo'lmish go'sht va sutga bo'lgan talabini qondirishga erishiladi.

Shuningdek trixofitiya kasalligi o'z vaqtida davolanmasa mollar (brak) chiqim bo'lishiga olib kelmoqda. Kasallikning kelib chiqishiga epiteliy to'qimalarning oldindan shikastlanishi sabab bo'ladi. Tadqiqotlarimiz jarayonida shu narsa ma'lum bo'ldiki, yurtimizda farmer xo'jaliklarida va xonadonlarda parvarishlanayotgan qoramollar, hamda xorijdan keltirilgan naslli qoramollarda teri kasalliklaridan trixofitiya kasalligi ham uchrab xo'jaliklariga sezilarli iqtisodiy zarar keltirmoqda.

Qoramollarda patalogik jarayon terini zamburug' zararlagan qismida eksudat ajralishi va muguz qavatining hamda junning ildiz qavatlarining zararlanishiga olib kelmoqda

3. TADQIQOT MATERIALLARI VA USULLARI

Tadqiqotlar Veterinariya ilmiy tadqiqot institutida mazkur ilmiy dargohnining rahbarlari va ilmiy rahbar bilan hamkorlikda hamda Germaniyaning Schleswig-Holstein, Henerau-Hademarschen, Thaden "Jurgen Gerkens", "Andree Gerkens", Bendorf qishlog'idagi "Denis" fermer xo'jaligida shuningdek yurtimizda Navoiy viloyatida "Rustam", "Sadin bobo", "Datepa", "Qosim Raxmatov", "Qo'shtut

dalasi”, “Moxira”, “Mamur ota”, fermer xo’jaliklarda ilmiy izlanishlar olib borildi. Tajribalarni o’tkazish jarayonida veterinariya fani va amaliyotida keng qo’llaniladigan zoogigienik, gematologik, fiziologik, texnologik va boshqa usullardan foydalanildi. Tekshirish jarayonida umumiy qo’llaniladigan ko’rish, auskultatsiya, palpatsiya, termometriya hamda gumon qilingan kasalliklarga maxsus tekshirishlar o’tkazildi. Agar xo’jalikdagi naslli mollar trixofitiya kasalligi bilan kasallangan bo’lsa unda uni Avitaminoz, xoriptoz, nadulyarniy dermatit, va boshqa dermatit ya’ni teri kasalliklarga o’xshash bo’lganligi sababli laboratoriyada tekshirildi.

Labaratoriya sharoitida tekshirish uchun kasallik o’chog’idan surtmalar (mazok) olinadi.

Dermatofitlar tashqi muhit noqulay omillariga chidamli. *Trichophyton verricosum*, *Tr. Yequinum*, *Tr. Gypseum*, *Tr. Mentagrophytes* va *Tr. sanis* lar bino va molxonalarda bir necha yillab yashay oladi. Yog’och oxur, panjara, eshik, idishlar chetida 2-3 yilgacha virulentligini bemalol saqlab qoladi. Patologik materialda zamburug’ sochning shoxsimon to’qimalariga o’ralgan bo’ladi. Shu sababli kulturadagi zamburug’larga nisbatan himoyasi mustahkamroq. Trixofiton zamburug’lari soch va junda 4-7 yil faol saqlanadi, tuproqda faolligini 3 oy saqlaydi. Suvda 800S qizdirilganda 7-10 daqiqa, qaynatilganda 2-3 daqiqa, 60-620 S quruq qizdirilganda 2 soatda, 1000 quruq qizdirishda 15-20 daqiqada faolsizlanadi. Quritishga, ultrabinafsha nur ta’siriga chidamli. Yon tomonidan quyosh nuri dermatofitlar vegetatsiyasini va pigmentatsiyasini kuchaytiradi. Dermatofitlar vegetatsiyasi uchun optimal muhit kuchsiz ishqoriy - rN 7,0-7,5 hisoblanadi. Dermatofitlar rN 4,0-4,5 muhitda vegetatsiya bo’lmaydi. Mexanik ta’sirlar dermatofitlarga ta’sir etmaydi.

Isitilgan 2% fenol patologik materialdagi zamburug’larni 20-30 daqiqada, 2% li formalin 3-5 daqiqada, 5-8 % li ishqorlar 20-30 daqiqada, 5-8 % li xlorid va sul’fat kislotalari 45-60 daqiqada, salitsil va benzoy kislotalarining yuqori konsentratsiyasi 30-45 daqiqada o’ldiradi.

Trixofitiya qo’zg’atuvchisini 15 % kreolin eritmasi 8 soatda, 15 % li bereza dyogti

4 soatda, 10 % li lizol 1 soatda, 2,5 % li sulema 30 daqiqada, 1 % yod 1 soatda, 10 % li mis kuporasi 2 soatda o'ldiradi.

Epizootologik ma'lumotlar. Tabiiy sharoitda temiratki bilan barcha tur qishloq xo'jalik (qoramol, qo'y-echki, tuya, ot va boshq.), uy (it, mushuk) va mo'ynali, yovvoyi hayvonlar hamda kemiruvchilar kasallanadi. Asosan yosh hayvonlar kasallanib, yilning hamma faslida, ko'proq qish va erta bahor hamda kech kuzda uchraydi. Bu davrga kelib fermada yem-xashak tanqisligi, shamol esib turishi, namlik oshishi, harakatning susayishi kabi omillar kasallik yuqishini tezlashtiradi. Temiratki sanitariya holati past hududlarda juda ko'p uchraydi va yil davomida qayd qilib turiladi. Oziqlantirishning talabga javob bermasligi hayvon chidamliligini pasaytiradi va uning temiratkiga moyilligini oshiradi.

Kasallik qo'zg'atuvchisining manbai kasal hayvon hisoblanadi. Sh. T. Rasulov (1970) O'zbekistonda qoramollar trixofitiyasi qish oylarida avjga chiqib, asosan bir yoshgacha bo'lgan buzoqlar kasallanishini uqtirib o'tgan. Adabiyotlarning tahlili, kasallik asosan buzoqlar orasida avgust-sentyabr oylarida boshlanib, qish oylarida avjga chiqishini ko'rsatadi. Otlar temiratkisi yil davomida kuzatilgan va keng tarqalgan. U hamma yoshdagi otlarda, lekin ko'proq qulunlarda uchraydi. Tabiiy sharoitda qulunlar 2 oylikdan boshlab kasallanadi. Ular kuzda avval kasallangan biya va otlar saqlangan binolarga kiritilganda, kasallik avjiga chiqqadi. Bo'taloqlar orasida ushbu kasallikning tarqalishi ularning kasal tuyalar bilan kontaktda bo'lishiga va oriqligiga bog'liq bo'ladi. Ayniqsa, bu hol bo'taloqlar avval kasalga chalingan tuyalar saqlangan joyda boqilganda yaqqol ko'zga tashlanadi. Kasallik quyonlar orasida ham keng tarqalib, ayrim hollarda 86-93 foizgacha yetadi. Kasallanish qish, bahor, yoz oylariga to'g'ri kelib, asosan yosh quyonchalarda kuzatiladi. Nutriyalar va boshqa mo'ynali hayvonlar orasida ham temiratki juda tez tarqaladi. Qisqa muddat ichida kasallik 70-80 foizgacha tarqalib, katta iqtisodiy zarar yetkazadi. Bunday bo'lishiga asosiy sabab, ular bino ichida katakchalarda saqlanadi.

Kasallik kontakt orqali bir-biriga yuqadi. Qo'zg'atuvchining bir hayvondan ikkinchisiga o'tish omillari bo'lib, bino, to'shama, xashak, jun, molga qarash qurollari, go'ng, tuproq va boshqa predmetlar xizmat qiladi.

Kemiruvchilar kasallikning tabiiy rezervuari hisoblanadi. Zamburug'ning tashqi muhit ta'sirlariga chidamliligi tufayli bino, yayrash maydonlari va yaylov uzoq vaqt kasallik tarqalish xavfini saqlab turadi.

4. TADQIQOTLAR NATIJALARI

4.1 Trixofitiya kasalligi, qo'zg'atuvchisi va uning turlari, hamda uchrash hududlari.

Qishloq xo'jaligida uy hayvonlarida xususan qoramollarda turli xil yuqumli, yuqumsiz, parazitlar kasalliklari uchraydi. Shu kasalliklar qatorida teri kasalliklari ham keng tarqalgan. Teri kasalliklari nafaqat yurtimizda balki butun dunyoda keng tarqalgan kasalliklar sirasiga kiradi. Teri kasalliklaridan Trixofitiya kasalligi ham yurtimizda va butun jahonda keng tarqalgan kasalliklar sirasiga kiradi. Bu kasallik Yevropada, Amerikada, osiyoda keng tarqalgan bo'lib hisoblanadi. Trixofitiya yani temirartki kasalligi zooantrapanoz kasalliklari sirasiga kiradi, yani insonlarda ham hayvonlarda ham uchraydigan kasallik hisoblanadi. Bu kasallik janubiy hududlardagi sernam yerlarda keng tarqalgan. Poda bo'lib boqilgan qoramollar orasida tez tarqaydi ya'ni bir biridan yuqishi yuqori bo'lib hisoblanadi. Chorvachilikka kata ziyon yrtqazadi. Masalan: hayvonning vazni kamayadi, sut va go'sht mahsuldorligi kamayadi, teri qoplami sifati buziladi. Germaniy podalarning 40 % temirartki (trixofitiya) kasalligi bilan kasallanadi. 5 dan 60 % gacha hayvonlarda kasallikning klinik belgilari paydo bo'ladi. Va iqtisodiy zarari 7.5 mln yevroni tashkil etadi.

Kasallik qo'zg'atuvchilari — zamburug'lar hisoblanadi. Bu kasallik qo'zg'atuvchilari *Trichophyton verrucosum*, *T. Equinum*, *T. Mentagrophytes*, *T. Sarcisovi*, *M. Equinum*, *M. Canis* bo'lib, bino va molxonalarda bir necha yillab yashay oladi.

Yog'och oxir, panjara, eshik, o'tin va idishlar chetida 2—3 yilgacha virulentligini bemalol saqlab qoladi. Yuqoridagi zamburug'lar har xil hayvonlarda kasallik qo'zg'atib, umumiy xususiyatlarga ega bo'lsada, bir-biridan ko'p jihatlari bilan farq qiladi. Kasal hayvondan olingan material mikroskop ostida tekshirilganda, artrosporalar zararlangan jun tolasi atrofida qator yoki tartibsiz joylashgan yarim

yaltiroq doirasimon sharchalar shaklida ko'rinadi. Bu holat ijobiy deb baholanadi va keyinchalik sun'iy muhitlarga ekiladi.

Kasallikning qo'zg'atuvchilari asosan suslo-agar, go'sht - peptonli 2% glyukoza qo'shilgan MPGA va Saburo agarlarida yaxshi o'sib, 3—4 haftadan keyin oqimtir momiqsimon koloniyalar paydo qiladi. Zamburug'lar va hayvonlar turiga qarab, ular ekilganda terisimon, jigarrang, sarg'ish momiq holatida o'sadi. Ajratilganda esa mikrokonidiy va xlamidosporalar holatiga qarab farqlanadi.

Asosan yosh hayvonlar kasallanib, yilning hamma faslida, ko'proq qish va erta bahor hamda kech kuzda uchraydi. Qo'shni mamlakatlar (Rossiya, Ukraina va b.) da ham, xuddi shunday mavsumiylik kuzatiladi. Bu davrga kelib fermada yem-xashak tanqisligi, shamol esib qurishi, namlik oshishi, harakatning susayishi kabi omillar kasallik yuqishini tezlashtiradi. Bu holat mamlakatlar sivilizatsiyasiga o'ta bolg'iq. Shuning uchun temiratki sanitariya holati past xo'jaliklarda juda ko'p uchraydi va yil davomida qayd qilib turiladi. Oziqlantirishning talabga javob bermasligi hayvon chidamliligini pasaytiradi va uning moyilligini oshiradi.

Mahalliy tilda bu kasallik “ temiratki” ham deyiladi. Barcha zamburug' kasalliklari singari bu kasallik ham mavsumiylikka xos.

Zamburug'larning nam, yog'ingarchilik oylarda ko'payishi va o'sishi uchun qulay sharoit bo'lganligi uchun yilning namgarchilik oylarida kasallikning ko'payishi kuzatiladi. Kasallik manbai bemor yoki kasallangan uy hayvonlari (mol, qo'y, it, mushuk va boshqalar) hisoblanadi. Shuning uchun ham chorvachilik bilan shug'ullanuvchida kuzatiladi.

Trixofitiya kasalligining quyidagi turlari farqlanadi:

- yuza trixofitiya
- surunkali trixofitiya
- yiringli-infiltrativ trixofitiya

Yuza trixofitiya

Yuza trixofitiya – aksariyat hollarda yosh qoramollarda uchraydi. Asosan surunkali

trixofitiya bilan ogʻrigan katta yoshli qoramollardan yuqadi. Zamburugʻ bosh juniga yoki teri yuzasiga tushgach, 2-3 hafta yashirin davridan keyin tangacha kattaligidagi oqimtir, yumaloq yoki ovalsimon koʻrinishdagi dogʻlar paydo boʻladi. Dogʻlarning yuzasi kepaksimon poʻstloqlar bilan qoplanib, shu sohadagi junlar 2-3 mm yuqoridan sinadi. Yuza trixofitiyada zamburugʻlar zararlangan jun xaltasi ichida joylashadi. Yuza trixofitiyada jun bilan birga terining oʻzi ham shikastlanadi, bunda terida avvaliga pushti-qizil yumaloq yoki oval shakldagi kepaklanuvchi dogʻlar paydo boʻladi. Chegarasi aniq boʻlib, chekkalari biroz koʻtarilib turadigan toʻgʻnogʻich boshidek keladigan tuguncha va pufakchalar paydo boʻladi. Ular birikib har xil shakllarni hosil qiladi. Bu kasallikda tuyoqlar ham zararlanib, xira tortib moʻrtlashib, notekis va gʻadir-budur boʻlib qoladi.

Surunkali trixofitiya

Surunkali trixofitiya – asosan kata qoramollardada uchrab, klinik koʻrinishi batamom oʻzgacha tus oladi. Terida chegarasi noaniq kepaksimon poʻst tashlab turuvchi oqimtir dogʻlar hamda singan junlarning oʻrni qora dogʻ boʻlib koʻrinadi. Ular davolanmasa kasallik manbai boʻlib yuraveradi.

Yoshi kata qoramollarda markaziy nerv sistemasi va ichki sekresiya bezlari faoliyatining oʻzgarishi zamburugʻlarga salbiy taʼsir koʻrsatadi. Shu sababli kata yoshli qoramollarda bu kasallik oʻz-oʻzidan yoʻqolib ketishi ham mumkin. Lekin ichki sekresiya bezlari faoliyatida, xususan tuxumdonlarda biror illati boʻlgan ayollarda bu kasallik surunkali tus olib, yillar davomida bezovta qiladi. Kasallik urgʻochi hayvonlarda koʻproq uchrab, terinning junli qismi, silliq teri va tuyoqlarning birga zararlanishi bilan kechadi. Boldir, tizza, tirsak, dumba sohalarida bir-biriga qoʻshilishga moyil boʻlgan, poʻst tashlab turadigan, binafsha rangli dogʻlar paydo boʻladi. Oyoq kaftlarining terisida yalligʻlanish belgilarisiz, poʻst tashlab turadigan kasallik oʻchoqlari vujudga keladi. Boshning chakka va ensa sohalarida junlar tagidan sinib, qora nuqtalar hosil qiladi. Shu sohalarda poʻst

tashlagan zararlanish o'choqlari, junsiz atrofiyaga uchragan joylar ham kuzatiladi. Kasallik uzoq kechadi, bu paytda bemorlar yosh hayvonlar uchun kasallik manbai bo'lib qolishlari mumkin.

Yiringli-infiltrativ trixofitiyalar

Yiringli-infiltrativ trixofitiya- bularni zoonoz Trichophytonlar (hayvon zamburug'lari) qo'zg'atadi. Kasallik buzoq, sigir, ot, qo'y va itlardan uchraydi. qoramollarda kasallik ancha yengil o'tadi. Kasallik yuqqanidan keyin 2-3 hafta o'tib qoramolning terisida yiringli tugunchalar paydo bo'ladi, ular bosib ko'rilsa yiring chiqadi.

Yiringlagan sohadan "ari uyasi" ni eslatuvchi yiringli ajralma ajraladi. qoramollar boshidan mog'or hidi kelib turadi. Yiringli sohadan junlar osongina to'kilib ketadi. qoramollar sog'aygandan keyin o'sha sohalarda jun siyrak, kam chiqib, joyi bilinib turadi. Zamburug'lar terini ham shikastlab, bunda terida dumaloq halqlar hosil bo'ladi. Zararlanish ochiq joylarda, asosan bo'yin, bilak va yuzda uchraydi. Afsuski, aksariyat kasal hayvonlar o'z vaqtida davolanmasligi oqibatida kasallikning yiringli-infiltrativ shaklga o'tib ketadi. O'tkazib yuborilgan vaqt esa, albatta o'z so'zini aytmay qolmaydi. Shunday ekan, teri sohasida o'zgarishlar kuzatilganda fursatni qo'ldan boy bermay veterinarga murojaat qilish lozimligini yana bir bor eslatib o'tmoqchimiz.

Bulardan tashqari hayvonlar orasida yassi temirartki turi ham uchraydi.

Yassi temiratki – surunkali teri kasalligi. Terida, shilliq qavatlarda, asosan lab va og'iz shilliq qavatlarida tugunchaga o'xshash toshmalar ko'rinishida namoyon bo'ladi. Bu kasallikka organizmda moddalar almashinuvi buzilishi, immunitet susayishi, irsiy moyillik sabab bo'ladi. Bundan tashqari, og'iz shilliq qavatidagi jarohatlar, endokrin, hazm tizimi va jigar kasalliklarida ham yassi temiratki rivojlanishi mumkin. Yassi temiratki allergik toshmalarga o'xshash, asosan qari qoramollarda uchraydi. Teri, shilliq qavatlar va jinsiy a'zolari zararlaydi. Og'iz bo'shlig'ida yassi temiratkining oq, hoshiyali, yarasimon turlari kuzatiladi.

Milklarda rivojlangan kasallik oqibatida milklardan ko'p qon ketishi mumkin. Og'izdagi yassi temiratkini davolashda infeksiya va zamburug'larga qarshi antibiotikli terapiya, vitaminoterapiya va qondagi glyukoza miqdorini ko'paytirishga asoslangan muolaja muhim ahamiyatga ega.

4.2 Epizootologik ma'lumotlar va patogenezi

Epizootologik ma'lumotlar. Tabiiy sharoitda temiratki bilan barcha tur qishloq xo'jalik (qoramol, qo'y-echki, tuya, ot va boshq.), uy (it, mushuk) va mo'ynali, yovvoyi hayvonlar hamda kemiruvchilar kasallanadi. Asosan yosh hayvonlar kasallanib, yilning hamma faslida, ko'proq qish va erta bahor hamda kech kuzda uchraydi. Bu davrga kelib fermada yem-xashak tanqisligi, shamol esib turishi, namlik oshishi, harakatning susayishi kabi omillar kasallik yuqishini tezlashtiradi. Temiratki sanitariya holati past hududlarda juda ko'p uchraydi va yil davomida qayd qilib turiladi. Oziqlantirishning talabga javob bermasligi hayvon chidamliligini pasaytiradi va uning temiratkiga moyilligini oshiradi.

Kasallik qo'zg'atuvchisining manbai kasal hayvon hisoblanadi. Sh. T. Rasulov O'zbekistonda qoramollar trixofitiyasi qish oylarida avjga chiqib, asosan bir yoshgacha bo'lgan buzoqlar kasallanishini uqtirib o'tgan. Adabiyotlarning tahlili, kasallik asosan buzoqlar orasida avgust-sentyabr oylarida boshlanib, qish oylarida avjga chiqishini ko'rsatadi. Otlar temiratkisi yil davomida kuzatilgan va keng tarqalgan. U hamma yoshdagi otlarda, lekin ko'proq qulunlarda uchraydi. Tabiiy sharoitda qulunlar 2 oylikdan boshlab kasallanadi. Ular kuzda avval kasallangan biya va otlar saqlangan binolarga kiritilganda, kasallik avjiga chiqqadi.

- 37% formaldegid eritmasi. Der bilan dezinfektsiyalash uchun matofitoz uchun preparatning iste'mol qilish tezligi 20 ml / m³ ni tashkil qiladi, dezinfektsiya xavfi 12 soat, zararsizlantirish uchun 25% ammiak eritmasi

ishlatiladi;

- 24% glutaraldegid eritmasi. Dermatofitoz bilan preparatning iste'mol qilish darajasi 25 ml / m³, dezinfektsiya darajasi 24 soat, 25% ammiak eritmasi zararsizlantirish uchun ishlatiladi;
- Sandim-D. Dermatofitoz bilan preparatni iste'mol qilish darajasi 25% / m³, 10% konsentratsiyada ishlatiladi, ta'sir qilish - 3 soat (aerozol bilan) va 150 ml / m² (yo'naltirilgan aerosol bilan);
- Desavid. Desavid bilan sirtlarni aerosol bilan dezinfektsiya qilish 10% eritma bilan dermatofitozga yo'naltirilgan aerosollar yordamida amalga oshiriladi. oqim tezligi 150 ml / m² bo'lgan kontsentratsiya;
- Farmayod. Dermatofitoz bilan preparatni iste'mol qilish darajasi 10 ml / m³, 4,5% konsentratsiyada ishlatiladi, 3 soat davomida ta'sir qilish;
- 1% KDP. Dermatofitoz bilan dezinfektsiyalash uchun norma hisoblanadi ha preparat - 20 ml / m³, dezinfektsiya ta'siri - 3 soat;
- 1% Sandim-NUK. Dermatofitoz bilan dezinfektsiyalash uchun preparatning iste'mol qilish vaqti 20 ml / m³ ni tashkil qiladi, dezinfektsiyalash ta'siri 3 soat;
- Glutar. Dermatofitoz bilan dezinfektsiyalash uchun 4% eritma, preparatni iste'mol qilish darajasi 20 ml / m³ ni tashkil qiladi, dezinfektsiyalash ta'siri 3 soatni tashkil qiladi;
- Succisan. 1 kg preparat tarkibida 30 g o'ksiz kislotasi mavjud, 20 g moy kislota, 40 g kaliy sulfat.

Bakteritsid ko'piklari biologik engil sirt faol moddalar ko'piklovchi vositani o'z ichiga olgan dezinfektsiyalash vositasining ishchi eritmasidan ko'pik generatori yordamida olingan dezinfektsiyalash vositalarining shakli. Dezinfektsiyalashning bu usuli Butunrossiya tadqiqotida ishlab chiqilgan Veterinariya sanitariya gigienasi va ekologiyasi instituti nafaqat zamonaviy ilm-fan, balki veterinariya amaliyotining talablariga javob beradi.

Dezinfektsiyalashning mavjud usullari bilan taqqoslaganda, bakteritsid ko'piklaridan foydalanish dezinfektsiyalash vositasining tozalangan yuzalar bilan doimiy aloqasini ta'minlaydi. murakkab dizayn. Ko'pik 1-3 sm qatlamda

qo'llaniladi, bu 200-300 ml / m² dezinfektsiyalovchi eritmaning ish tezligiga to'g'ri keladi. yuzasi yaxshi mahkamlangan va 30 daqiqa ichida to'liq o'chmaguncha doimiy qopqoq bilan ushlab turiladi. Bakteritsid ko'pik bilan ishlangan yuzalar keyin nam bo'lib qoladi kamida 1 soat davomida ko'pikni yo'q qilish.

Dezinfektsiyalashning ushbu usuli bilan mehnat unumdorligi 2 baravar oshiriladi, giyohvand moddalarni iste'mol qilish kamayadi Nam dezinfektsiyalash usuli bilan taqqoslaganda 2-3 marta, davolash samaradorligi yaxshilanadi. Bakteritsidni qo'llash ko'pik xonani muhrlashni talab qilmaydi.

Dezinfektsiyalash choralari to'g'ri amalga oshirish kasalliklarni oldini olishda eng muhim omil bo'lib hisoblanadi.

4.9. Molxonadagi mikroiklim ko'rsatkichlarini qoramollarni fiziologik holati hamda trixofitiya kasalligiga ta'siri.

Mikroiklim parametrlari mavsumlar bo'yicha me'yor darajasidan o'zgarasa yoki buzilsa, hayvonlar mahsuldorligi 20-30 foizga pasayadi, organizmning infeksiyalarga qarshilik ko'rsatish qobiliyati zaiflashadi, bundan tashqari chorvachilik binolari va uskunalarning xizmat muddati qisqaradi. Noqulay mikroiklim va spetsifik bo'lmagan qo'zg'atuvchilar stress holatlarni keltirib chiqaradi, bunday holatlar esa chorva mollarda har xil kasalliklar teri kasalliklari shu jumladan trixofitiya kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin.

Yopiq chorvachilik binolarning mikroiklim quyidagi ko'rsatkichlarni: harorat (temperatura) havoning namligi va harakatchanligi, yoritilish darajasi, gaz tarkibi, chang bosganligi va mikroblar bilan ifloslanganlikni o'z ichiga oladi. Katta yoshdagi qoramollar asraladigan binolar ichidagi havoning temperaturasi 10-12 C atrofida saqlab turilishi kerak. Havoning nisbiy namligi 70 foiz bo'lgan sharoitda tashqi havo bilan ichki devor hamda shiftlar satxining temperaturasi o'rtasidagi tafovut 30 C dan, havoning temperaturasi yuqori bo'lganda esa 1,5-2 C dan oshmasligi kerak.

Hayvonlar sog'lig'ini saqlash va ularning mahsuldorligi yuqori bo'lishiga erishish uchun binolar ichida havoning namligi temperaturasi xarakat tezligini

me'yor darajada saqlab turishi katta ahamiyatga ega.

Tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha barcha turdagi chorva mollari saqlanadigan binolarda havoning me'yor nisbiy namligi 60-75% va harakatlanish tezligi 0,2 m/s bo'lganda boquvdagi qoramollar vaznining ortishi sutkasiga atigi 595-868 gr ni tashkil etganligi aniqlangan. Mollar ochiq qo'rada asralib, havoning harakatlanish tezligi suniy yo'l bilan 1,6 m/s ga yetkazilganligi boshqa gruppada esa bu ko'rsatgich 1 kg ga teng bo'ladi va undan ham oshadi.

Bizning ilmiy kuzatuvlar jarayonida nazoratdagi fermalar molxonalarida mikroorganizmlar miqdori qish oylarida 90-124 ming bahorda 94-117, yozda 43-95, kuzda 87-118 ming/m kub bo'lganligi kuzatildi.

Mikroiqlim parametrlari	Bir yoshdan kata qoramollar xonasi	Navoiy viloyatida	Germaniya thaden da	Germaniya Bendorf
Havoning harorati	30 gacha	26-29	17-22 16-20	17-23
Havoning namligi %	30-70	40-60	65-85	70-85
Havoning harakat tezligi, m/s	0,5	1,5-2	0,7-1,5	0,8-1,4
Havo almashish m ³ /s 1 boshga:				
Qishda	17	20	25	50
Bahor va kuzda	35	40	50	100
Yozda	75	100	120	200
Zaharli gazlar NH ₃ , mg/m ³	20	30	20	17

CO, %	0,20	0,15	0,20	0,25
H ₂ S, mg/m ³	0,05	0,01	0,05	0,01
Merkaptan , mg/m ³	0,5	0,1	0,1	0,1
Mikroblar miqdori, ming/m ³				
Qishda	70 gacha	90-120	75-100	78-105
Bahor va kuzda	70 gacha	90-100	60-75	65-80
Yozda	70 gacha	80-90	63-78	75-90
Trixofitiya kasalligining tarqalishi %	10	15	14	13

Ferma xo'jaligi sharoitida saqlanayotgan turli yoshdagi koramollar uchun mikroiklim parametrlar

Yuqori havo harorati va nisbiy namlikning zoogigienik me'yordan past bo'lishi tajriba va nazoratdagi hayvonlarni ozuqa qabul qilishi orasida 30-35 foizga kamligi suv iste'moli nazoratda bo'lgan hayvonlarda ko'payganligi doimo terlash holatlari kuzatildi.

Tadqiqotlar Veterinariya ilmiy tadqiqot institutida mazkur ilmiy dargohnining rahbarlari va ilmiy rahbar bilan hamkorlikda hamda Germaniyaning Schleswig-Holstein, Henerau-Hademarschen, Thaden "Jurgen Gerkens", "Andree Gerkens", Bendorf qishlog'idagi "Denis" fermer xo'jaligida shuningdek yurtimizda Navoiy viloyatida "Rustam", "Sadin bobo", "Datepa", "Qosim Raxmatov", "Qo'shtut dalasi", "Moxira", "Mamur ota", fermer xo'jaliklarda ilmiy izlanishlar olib borildi

Ayniksa bahor - yozning jazirama issik kunlarida havo xarorati o'rtacha 16-18 C gacha pasaytirildi. Respublikamizning barcha xududlarida chorvachilikni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari va yo'nalishlari bu veterinariya-gigienasi tadbirlari bilan bog'liqdir. Bu abiotik faktorlarning ustvorligi mustahkam optimal mikroiqlim parametrlarini mavsumlar bo'yicha me'yorlar darajasida xar xil yoshdagi qoramollarga moslashtirib ishlatishdan iboradir. Veterinariya

madaniyatini ko'tarish yo'li bilan qoramollar maxsuldorligini ko'tarish xamda yuqumli va yuqimsiz kasalliklardan tashki muxitni esa zararlanishdan ximoya kilish muxim axamiyatga egadir. Bu jarayonda veterinariya mutaxasislari amaldagi xujjatlarga asosan eski fermalarni rekonstruktsiya kilib mavjud chorva bosh soniga karab moslashtirib kayta kurishlari kerak. Bunda asosan ventelyatsiya shamollatish tizimini go'ng chiqarish mexanizmlarini pollar nishabligini devor va potoloklarni ustki qoplamalarini noto'g'ri joylashtirilishi xam mikroiklim parametrlarini me'yorlarga moslik ta'minlamasligi sababli xo'jalikdagi xashaki va naslli qoramollarda teri kasalliklarini kelib chiqishi sabab bo'lmoqda

**Tajriba 1. Chorva fermer xo'jaligida mikroiklim ko'rsatkichlarini
hayvonlarning kliniko-fiziologiyasiga ta'siri**

Hayvonlar turi	Xatirchi tumani „Qosim Raxmatov “ fermer xo'jaligi		
	Klinik fiziologik belgilar		
	Tana harorati, C	Yurak urushi, daqiqa	Nafas olishi, daqiqa
Qoramollar			
yoz	37,1 ± 0,1	76,0 ± 0,58	21,0 ± 0,88
Bahor va kuz	37,9 ± 0,2	66,0 ± 1,14	16,4 ± 0,58
Qish	37,5 ± 0,1	74,0 ± 0,58	20,0 ± 0,88
Hayvonlar turi	Germaniya Bendorf “ Denis “ fermer xo'jaligi		
	Klinik fiziologik belgilar		
	Tana harorati, C	Yurak urushi, daqiqa	Nafas olishi, daqiqa
Qoramollar			
yoz	37,4 ± 0,1	74,0 ± 0,58	23,0 ± 0,88
Bahor va kuz	37,0 ± 0,2	65,0 ± 1,14	18,0 ± 0,58
Qish	37,8 ± 0,1	76,0 ± 0,58	22,0 ± 0,88

Hayvonlar turi	Germaniya Thaden " Jurgen Gerkens " fermer xo'jaligi		
	Klinik fiziologik belgilar		
	Tana harorati, C	Yurak urushi, daqiqa	Nafas olishi, daqiqa
Qoramollar			
yoz	39,1 ± 0,1	77,0 ± 0,58	25,0 ± 0,88
Bahor va kuz	38,9 ± 0,2	74,0 ± 1,14	20,0 ± 0,58
Qish	37,5 ± 0,1	72,0 ± 0,58	19,0 ± 0,88

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, Respublikamizning turli iqlim sharoitida faoliyat ko'rsatayotgan fermer xo'jaliklari molxonalarida yilning yoz, bahor, kuz, va qish oylarida mikroiklim ko'rsatkichlari turlicha bo'lganligi sababli qoramollarning kliniko fiziologik holati turlicha bo'lib, shulardan bahor va kuz oylari zoogigienik me'yorga yaqin ekanligi aniqlandi.

Tajriba 2. Chorva fermer xo'jaligida mikroiklim ko'rsatkichlarini hayvonlarning kliniko-fiziologiyasiga ta'siri

Hayvonlar turi	Xatirchi tumani „Qosim Raxmatov “ fermer xo'jaligi		
	Klinik fiziologik belgilar		
	Tana harorati, C	Tana harorati, C	Tana harorati, C
Qoramollar			
yoz	37,1 ± 0,1	76,0 ± 0,58	21,0 ± 0,88
Bahor va kuz	37,9 ± 0,2	66,0 ± 1,14	16,4 ± 0,58
Qish	37,5 ± 0,1	74,0 ± 0,58	20,0 ± 0,88
Hayvonlar turi	Germaniya Bendorf " Denis " fermer xo'jaligi		
	Klinik fiziologik belgilar		
	Tana harorati, C	Tana harorati, C	Tana harorati, C
Qoramollar			
yoz	37,4 ± 0,1	74,0 ± 0,58	23,0 ± 0,88
Bahor va kuz	37,0 ± 0,2	65,0 ± 1,14	18,0 ± 0,58
Qish	37,8 ± 0,1	76,0 ± 0,58	22,0 ± 0,88

Hayvonlar turi	Germaniya Thaden " Jorgen Gerkens " fermer xo'jaligi		
	Klinik fiziologik belgilar		
	Tana harorati, C	Yurak urushi, daqiqa	Nafas olishi, daqiqa
Qoramollar			
yoz	39,1 ± 0,1	77,0 ± 0,58	25,0 ± 0,88
Bahor va kuz	38,9 ± 0,2	74,0 ± 1,14	20,0 ± 0,58
Qish	37,5 ± 0,1	72,0 ± 0,58	19,0 ± 0,88

Trixofitya kasalligining turli xil yoshdagi qoramollarda uchrash ko'rsatkichi(%)
larda ifodalangan. Turli xil fasllarda uchrashi.

Qoramollar	Bahor	Yoz	Kuz	Qish
1 yoshgacha bo'lgan qoramollar	10-20	5-10	15-25	8-15
1-3 yoshgacha bo'lgan qoramollar	15-20	7-12	13-25	10-18
Kata yoshdagi qoramollar	13-25	8-15	15-28	12-20

4.10. Tadqiqotlarning iqtisodiy samaradorligi

Qoramollar temiratki kasalligi bo'yicha Moskvalik professor Artyom Xrestoforovich Sarkisov va uning shogirdlari ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishdi va jahondagi barcha mamlakatlar hozirgi kunda ham temiratki kasalligiga qarshi LTF-130 vaksinasini Moskva ya'ni Rossiyadan olishadi.

O'z R. da bu xavfli yuqumli kasallik professorlar Rasulov Sh.T., Parmanov M.P. va shogirdlari tomonidan o'rganilgan, hozir ham kafedra olimlari tomonidan Tr. verricosum, Tr. mentagforium, Tr. canis shtamlari kulturalari o'stirilib ulardan antogenlar tayyorlangan.

LTF-130 vaksinasi ikki xil maqsadda ishlatiladi: ham profilaktik maqsadda,

ham davolash maqsadida ishlatiladi. Faqat davolash uchun profilaktik doza ikki marta ko'paytiriladi va yuborish ham 20-25 kundan keyin ya'ni ikki marta inyeksiya qilinadi. Effekti 100%.

Samaradorlikni hisoblaylik 100 buzoq LTF-130 vaksinasi bilan emlandi 5 ml.dan 500 ml. vaksina 100 dozasi – 5 ming so'mdan 500 ming so'm. Emlash o'tkazish tadbiriga 500 ming so'm berildi. Jami 1 mln so'm sarflandi. Agarda shu tadbir o'tkazilmaganda edi har 1 bosh buzoq 1,5-2,5 kg o'sishdan qolar edi, o'rtacha 2 kg ni olsak bu 100 bosh buzoqda 200 kg prives yo'qotish yoki 1 kg go'sht bozor narxida 50 ming so'm demak $50.000 \times 100 = 5.000.000$ so'mni tashkil etadi.

$$I.S. = \frac{V_x - V_o}{100} = \frac{5.000.000 - 1.000.000}{100} = \frac{4.000.000}{100} = 40000$$

Rentabellik formulasi bo'yicha $\Sigma F : 100 = 400$ yoki 40 % ga ta'minlandi.

Ikkinchi xil hisob bo'yicha $5.000.000 : 1.000.000 = 5$ so'm bu degani 1 so'm sarflab 5 so'm foyda olayapmiz. Ikkinchidan global masshtabda ekologik muhitni sog'lomlashtirishga kata xissa qo'shilmoqda.

4.11 VETERINARIYA QONUNCHILIGIDA TEMIRATKI KASALLIGIGA QARSHI KURASHISH BO'YICHA YO'RIQNOMALAR

Temiratki kasalligiga yo'liqqan hayvonlardan patmaterial olish va tekshirish metodlari. Temiratki jarohatining chetki qismidan skalpel yordamida qirindini steril sellofan xaltachaga olinadi va germetik mahkamlab yo'llanma qog'ozga viloyat, tuman, fermer xo'jaligi, hayvon turi, yoshi, jinsi, inventar birka nomeri yozib jo'natiladi.

Apt material – jun va epizermik qirindilar maxsus qaychi yoki maydalagich bilan 2-3 mm kattalikda kesiladi, buyum oynachasi spirtovka alangasi ustida yengil qizdiriladi. Patmaterial uchtaga pipetka yordamida 10 % natriy ishqori eritmasidan bir tomchi tomiziladi va yana spirtovka alangachi ustida yengil qizdiriladi, keyin

etanol, gliserin, distillangan suv eritmasidan (1:1:1) bir tomchi tomizilib yopqich shisha bilan yopilib mikroskopiya qilinadi 100, 200, 400 marta kattalashganda jun tolasi atrofida artrosporalar, miseliylar topiladi.

Epidermis bo'lakchalarida va soch, jun tolasi atrofida zanjirsimon artrosporalar ko'riladi. Ozuqa muhitiga patmaterialni ekin – GPA ga yoki suslo agariga, Saburo muhitiga – maydalangan jun tolachalari hamda epidermis bo'lakchalari ekiladi. Ularning oralig'i 1-2 sm uzoqlikda bo'lsin. Suslo agarining rN = 6,3 – 6,5 bo'lishi kerak. GPA-ga 2 % glyukoza qo'shiladi va termostatga + 27 + 28oS ga qo'yiladi. 2-3 xaftada bulutsimon kultura o'sadi. Eng xarakterli morfokultura 20-25 sutkada hosil bo'ladi. Birlamchi kultura yuqa, oqish, yumaloq shaklda bo'lib, sochilib joylashadi, qavat-qavat va patsimon shaklda bo'ladi. Ba'zi hollarda kultural shakl 5-7 10-25 mlm kattalikka tenglashadi.

Kultura uzoq saqlanganda yumaloq, noksimon, tayoqchasimon mikrokonidiyalari rivojlanadi. Ular 1-5, 2-7 mm kattalikgacha yetadi. Ba'zida mikrosporidiyalari 10-12 mlm qalinlashadi. Qo'ylar temiratki kasalligi shtamlari stabil kultural morfologik belgilarga ega emas. Kultural koloniyalar sarg'ish, qo'ng'ir, oqish, qaymoq rangli bo'lib qat-qat, hurpaygan, pag'a-pag'a bo'ladi. Suslo – agaridagi kulturalar 2-3 oyda ko'chirib ekilganda 7-8 oygacha o'ziga xos rangni yo'qotmagan va artrosporalar yaqqol hosil bo'lgan.

Kasallik qo'zg'atuvchi patogen zamburug'ning morfologik xususiyatlari va rivojlanish jinamikasi

Kasal qo'ylardan ajratib olingan shtammlar kultural xususiyatlariga ko'ra 3-tipga mansub:

1. Mumsimon qo'ng'ir koloniyalar, sekin o'sadi, miseliyalari yuqa, nozik, ba'zida mikrokonidiyalari bo'ladi.
2. Tiniq gumboz rangli, momiqsimon yoki biroz pag'a-pag'ali, yuqa, terisimon koloniya, miseliyalari yuqa va qalin, sporalalari xlamidosporasimon. Qalin miseliyalari aniq ko'rinadi (chetko)
3. Oqish momiq koloniyalar yuqa, egri-bugri, to'g'ri miseliyalar, shishgan (kutarilgan) qisman ham bor.

Artrosporalar 6,6-8,6 mmk kattalikda. Terminal xlamidosporalar 45-60 mmk, ko'pincha egri-bugri, ba'zan yon tomoni o'yiqsimon. Kulturaldagi miseliylar zamburug'ga xos barcha belgilarga ega bo'ladi. Bir sutkadan keyin ikkilamchi kultura ekilganda mikrokonidiyalar yon tomonga qarab o'sishi kuzatildi. Muallaq – uzilgan mikrokonidiyalar ham hosil bo'ldi. Qalin miseliylar va uzilgan miseliylar yoye o'simtalar o'sib chiqdi, ular artrosporalarga bo'lindi. Bir sutkadan so'ng xlamidosporalar o'zgarmadi. To'rt sutkadan keyin esa 2 xil miseliylar paydo bo'ldi. Biri miseliyga xos, ikkinchisi esa o'zgargan shakli paydo bo'lishi kuzatildi. Besh sutkadan keyin esa GPA da ikki xil miseliy hosil bo'ldi, to'g'ri 3-5 mmk va yuqa yon o'simtali.

Saburo muhitida yuqa egri miseliylar paydo bo'ldi. Xlamidosporalar va artrosporalar o'sishi ham kuzatildi. Uch sutkalik birlamchi kulturalarda faqat artrosporalarga bo'linuvchi miseliylar paydo bo'ldi.

GPA – muhitida 5-sutkada yon o'simtali fragmentlashgan miseliylar kuzatildi. Ikkilamchi kulturalarda ba'zan 10 mkm uzunlikdagi mikrokonidiyalar paydo bo'ldi. 14 sutkada ikki tipdagi miseliylar: yuqa va qalin, sporalashi yumaloq, oval, noksimon, tayoqchasimon. Ba'zi hollarda bug'i shaxi shaklidagi koloniyalar o'sadi.

45 sutkalik kulturalarda qalin, yuqa miseliylar, to'g'ri va egri-bugri miseliylar, momiqlashgan, hurpaygan miseliylar, artrosporalar va xlamidosporalar hosil bo'ladi.

Laboratoriya hayvonlariga patogenligi – kasal qo'ylardan olingan patmaterialdan o'stirilgan kulturalar bilan laboratoriyach hayvonlari teri usti tirnolib yuqtirish, teri ostiga inyeksiya (ukol) qilish, venasiga yuborish yo'llari – metodlari bilan dengiz cho'chqalari va quyonlarga yuqtirildi.

Biosinov uchun 21-25 kunlik kultura maxsus mikroskopik tekshiruvdan so'ng, kultura 30-50 ml steril fiziologik eritmada eritildi. 10 mln/ml hisobda tayyorlanadi. Sun'iy yuqtirilgan hayvon uzluksiz nazoratda bo'ladi, 10-12 sutkadan so'ng, yuqtirilgan joydan qirindi olinib mikroskopiya o'tkaziladi. Laboratoriya hayvoniga yuqtirilgandan keyin 2-5 sutkadan so'ng o'sha

joyda qizarish va shish paydo bo'ladi, 10-12 sutkadan keyin mayda qizg'ishgumbaz rangli pufakchalar paydo bo'ladi, vaqt o'tishi bilan jarohatlangan joyda terida yemirilish epiderma, jun, derma qavatlarida paydo bo'ladi, ba'zan chuqurroq qatlamlarigacha o'tishi ham kuzatiladi. Ba'zan hollarda jarohat ustki qismi qattiq qobiq bilan qoplanadi. 20-25 sutkadan keyin jarohat chuqurlashib, qonli yaraga aylanadi (hayvon qashlangani sababli) 1,5-2 oylik dengiz cho'chqalari va quyonchalar temiratki qo'zg'atuvchilariga o'ta sezgir hisoblanadi. Quyonlarda klinik belgilari aniq ko'zga tashlanmaydi. Turli hayvonlarda temiratki kasalligi qo'zg'atuvchisining patogenligi va virulentligi bir xilda emas. Muallif professor Parmanov M.P., vet.fan.nom. Parmanov J.M.

5. XULOSALAR

1. Navoiy, Germaniyaning Thaden va Bendorf chorvachilik fermer xo'jaliklarida jaydari va naslli qoramollar o'rtasida teri kasalliklaridan trixofitiya kasalligi 5-40 % gacha uchraydi.

2. O'rganilgan fermer xo'jaliklaridagi qoramollarda surunkali trixofitiya ko'proq uchrashi aniqlandi. Trixofitiya kasalligi yil fasllarining dyarli barchasida uchrab asosan namgarchilik va yog'ingarchilik ko'p bo'ladigan fasllarda ya'ni kuz va bahor fasllarida ko'proq uchrashi aniqlandi. Sababi namgarchilik trixofitiya qo'zg'atuvchisi uchun muhim sharoit bo'lib hisonlanadi.

3. Germaniyadagi podalar orasida trixofitiya kasalligi ko'proq uchrashi aniqlandi. Germaniyadagi xo'jaliklarda deyarli barcha fasllarda uchraydi va bir xil tarqalgankasallik avjiga chiqqan fasllarda podalar orasida 40% gacha yetadi va kata iqtisodiy zarar yetqazadi.

4. Sut ishlab chiqarishga ixtisoslashgan chorvachilik fermer xo'jaliklarda teri kasalliklari, xususan trixofitiya kasalligini keltirib chiqaruvchi asosiy sabablardan biri bu veterinariya-sanitariya va zoogigienik qoidalarga rioya qilinmasligi natijasida sodir bo'ladi.

5. temiratki kasalligiga qarshi yevropada turli xil vaksinalar yaratilgan va qishloq xo'jaliklarida keng qo'llanilib kelinmoqda. Kasallikni oldini olish maqsadida turli xil chora tadbirlar olib boriladi xususan xo'jalikda keng ko'lamda

dizenfeksiya ishlari olib boriladi.

6. trixofitiya kasalligi qishloq xo'jaligi hayvonlariga kata ziyon yetkazadi. Ularning sut va go'sht mahsuldorligiga, teri sifatining yomonlashuviga olib keladi. Shuning uchun bu kasallikka qarshi kurashiladi va davolash ishlari o'z vaqtida olib boriladi

6. AMALIY TAKLIF VA TAVSIYALAR

Temiratki kasalligining kasal hayvon va odamlardan sog'lom odamlar va sog'lom hayvonlarga yuqishini to'xtatish kerak. Bu tadbir kompleks bo'lib quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Yangi keltirilgan hayvonlar bir oy karantinda saqlanib har kuni veterinariya tekshiruvidan o'tkazilib, sog'lom bo'lsa podaga qo'shish kerak.
2. Temiratki kasalligi bor kishilar fermaga kiritilmasin.
3. Kasallangan hayvonlar barchasini a'lohida ajratilib davolashni to'liq bajarish lozim.
4. Kasal hayvonlar turgan molxonalar grafik bo'yicha joriy dezinfeksiya qilinishi shart.
5. Sog'lom hayvonlarning barchasi temiratki kasalligiga qarshi vaksinasiya qilinishi shart.
6. Molxona jihozlari ham dezinfeksiya qilinadi.
7. Go'ng maxsus biotermik yamalarda zararsizlantiriladi.
8. Fermadagi xizmatchilar maxsus ust-bosh va poyafzal bilan ta'minlanadi.
9. Xizmatchilarning shaxsiy gigiyenaga rioya qilinishi rahbariyat tomonidan nazorat qilinadi.
10. Fermada temiratki kasalligining oldini olish, yuqishini to'xtatish, davolash mavzusi bo'yicha seminar-treninglar o'tkaziladi.
11. Yem-xashak qoldiqlari maxsus joyda kuydiriladi.
12. Fermaga begona kishilar, hayvonlar kirishiga yo'l qo'yilmaydi.
13. Dezobaryer va dezomatlar uzluksiz yangilanib turiladi.

14. Infeksiyaning kirib kelishi mumkin bo'lgan barcha yo'llar yopilishi ta'minlanadi.

7. VETERINARIYA ISHINI TASHKIL ETISH

Davlatimiz xxxududining epizootic sog'lomligini ta'minlashda yuqori malakali va iqtisodiy samara beruvchi veterinariya xizmatini tashkil etish muhimdir. Bu vazifalarni bajarish veterinariya isini to'g'ri tashkil etish bilan bog'liq.

Bu borada 2015 byilda qabul qilingan yangi tahriddagi "Veterinariya to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni alohida e'tiborga loyiq. Davlat veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi tuzilib veterinariya sohasini dalat tomonidan bosqarish tizimi mutlaq o'zgardi.

Tumanlarda tashkil qilingan veterinariya xizmati undagi barcha kategoriyadagi (fermer, shirkat, shaxsiy yordamchi va dehqon) xo'jaliklarga tegishli barcha turdagi chorva hayvonlar, parrandalar, baliqlar va ayrim uy hayvonlari (itlar) ni turli yuqumli, yuqumsiz va parazitlar kasalliklardan muxofaza qilishga, poydo bo'lgan taqdirda ularni o'z vaqtida davolashga, tarqalmasligini oldini olishga, chorvachilik va dehqonchilik maxsulotlarini sifatini aniqlashga (veterinariya sanitariya ekspertizasidan o'tkazishga) qaratilgan.

Tuman Veterinariya bo'limi viloyat veterinariya boshqarmasi tarkibiga kiradi va unga bo'ysunadi.

Tumanlardagi veterinariya xizmati tuman veterinariya bo'limi, veterinariya stansiyasi, veterinariya laboratoriyasi, zooveterinariya tarkib topadi va u tuman,

xo‘jaliklar, xissadorlik jamiyatlari, korxona va tashkilotlardagi veterinariya mutaxasislari tomonidan amalga oshiriladi. Tuman Veterinariya bo‘limi boshlig‘i (bosh veterinariya vrachi) tuman bo‘yicha barcha veterinariya xizmatini boshqaradi.

Davlat veterinariya muassasi tuman miqyosidagi veterinariya xizmatini tashkil qiladi va uni amalga oshiradi.

Veterinariya tadbirlari quyidagi 4 guruhga bo‘linadi:

- 1 – Tashkiliy xo‘jalik tadbirlari.
- 2 – Profilaktik tadbirlar.
- 3 – Veterinariya –sanitariya tadbirlari.
- 4 – Kasallangan hayvonlarni davolash.

Tuman veterinariya bo‘limi barcha veterinariya shaxoblariga ega. Xaar bir shaxobcha o‘ziga berkitilgan xududda ushbu veterinariya tadbirlarini amalga oshiradi va tuman veterinariya bo‘limiga oyma-oy bajarilgan ishlar to‘g‘risida xisobot berib turadi.

Endilikda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasning Prizidenti I.A. Karimovning maxsus farmonlariga asosan «SHaxsiy yordamchi, dexqon va fermer xo‘jaliklarida chorva mollari sonini ko‘paytirishni rag‘batlantirish to‘g‘risida» gi 2006 yil 23-martda qabul qilingan 308-sonli hamda «SHaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo‘jaliklarida chorva mollarini ko‘paytirishni rag‘batlantirishni kuchaytirish hamda chorvachilik maxsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish borasidagi ko‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risidagi» 2008 yil 21-aprelda qabul qilingan 842-sonli qaroriga asosan, har bir tumanda kompleks tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan zooveterinariya shaxobchalari tashkil etilmoqda. Ularning barcha faoliyati tuman, shahar, viloyat veterinariya boshqarmalari tomonidan nazorat qilib boriladi, kerakli barcha sarfxarajatlar davlat tomonidan ta'minlanadi. Bulardan tashqari aholining shaxsiy chorvasiga xizmat qilish uchun shahar va tumanlarda xususiy pullik veterinariya xizmati ham amalga oshirilmoqda.

Tuman veterinariya bo‘limi viloyat veterinariya boshqarmasi tomonidan tasdiqlangan reja asosida ish yuritadi. U quyidagilardan iborat;

1. Perspektiv reja: Ushbu rejaga surunkali xolda kechuvchi yuqumli kasalliklarni, jumladan muberkup, bursellyozni yo'qotish masalalari kiritiladi.
2. Joriy reja: Ushbu reja o'z ichiga u yoki bu yuqumli invazion kasalliklarning o'tkazishni yuqumsiz va parazitlar kasalliklarni davolash va oldini olish tadbirlarini o'tkazishni, hayvonlarni dispansirizatsiya qilish, turli veterinariya – sanitariya tadbirlarini amalga oshirishni o'z ichiga oladi.

Tuman veterinariya bo'limida quyidagi jurnallar yuritiladi:

1. Kasal hayvonlarni qayd etish jurnali №/vet .
2. Tuman veterinariya punktlaridagi epizootologik xolatni yorituvchi jurnal – epizootiyaga qarshi olib borilganda modvirlarni qayd etuvchi jurnal.
3. Xisobot jurnallari:

Hayvonlarni yuqumli kasalliklari bo'yicha xisobot jurnali.

Hayvonlarning yuqumsiz kasalliklari bo'yicha xisobot jurnali.

Veterinariya xizmati bo'yicha oylik ivartallik va yillik xisobotlar yuritiladi.

Xo'jalikda veterinariya mutaxasislari barcha qoidalarga rioya qilingan xolda veterinariya xolatini tizimli ravishda o'rganib borishadi. Veterinariya xizmatini mablag' bilan taminlash xo'jalikda o'tkaziladigan barcha tadbirlarni o'tkazish uchun sarflanadigan dori-darmonlar, asboblarni, ishlash uchun vaksinalar «zoovetmat» tashkiloti va kommertsiya vetdoriyonalari tomonidan ta'minlanadi. Eng xavfli yuqumli kasalliklarga qarshi emlash uchun vaksinalar va turli zardoblar davlat tomonidan bepul beriladi.

Rejalashtirilgan boshqa tadbirlarni o'tkazish uchun mablag' bilan taminlash xo'jalik hisobidan amalga oshiriladi. Bularga kanallarga, xashoratlarga va kemiruvchilarga qarshi kurashish va tug'ruq vaqtida o'tkaziladigan veterinariya tadbirlari, barcha turdagi hayvonlarni davolash uchun vetdavolash, izolyatorlarni to'la taminlash ishlari kiradi.

Xo'jalikda veterinariya ishlari bir muncha yaxshi yo'lga qo'yilgan unda veterinariya mutaxasislari xizmat ko'rsatib kelmoqda.

Veterinariya xodimlari uchun xonalar va dori-darmonlar xamda asbob uskunalar uchun aloxida xonalar, kasalliklarni davolash uchun xam va turli xil hayvonlarni ma'lum vaqt davolash uchun izolyatorlar mavjud.

Diagnostic tekshirish, degilmintizatsiya, deratizatsiya o'tkazish rejalari yilning boshida uchastka veet vrachi tomonidan tuziladi vash u asosida ish olib boriladi. Rejani tuman bosh veterinariya vrachi tasdiqlaydi va nazorat qilib boriladi.

8. HAYOT FAOLIYAT XAVFSIZLIGI.

Prezidentimiz I.A.Karimov «O'zbekiston XXI-asr bo'sag'asida» kitobida ekologik muammolar to'g'risida shunday degan edi: «Milliy xavfsizlikka qarshi muammolarni ko'rib chiqar ekanmiz ekologik xavfsizlik va atrof muhitni muhofaza qilish muammosi e'tiborga molikdir.

Asrlar davomida to'planib kelgan ekologik muammo hozirgi pallada butun insoniyat, mamlakatlar aholisi juda katta ekologik xavfga duch kelib qoldi. Buni sezmaslik, qo'l qovushtirib o'tirish, o'z –o'zidan insoniyatni o'limga mahkum etish bilan barobardir. Afsuski, hali ko'plar ushbu muammoga beparvolik va ma'suliyasizlik bilan munosabatda bo'lmoqdalar.

Ekologik xavfsizlik muammosi allaqachonlar milliy va mintaqaviy doiradan chiqib, butun insoniyatning muammosiga aylandi.

Tabiat va inson o'zaro mustaqil qonuniyatlar asosida munosabatda bo'ladi. Bu qonuniyatlarni buzish, o'nglab bo'lmas ekologik falokatlarga olib keladi.

Beto'xtov davom etayotgan qurollanish poygasi atom-kimyoviy qurollar va ommaviy qirg'in qurollarining boshqa turlarini sinash, insoniyat yashayotgan muhit uchun juda kata xavf tug'dirmoqda.

Markaziy Osiyo mintaqalari ekologik falokatning oliy xavfli zonalaridan biri vujudga kelganligini alam bilan aytishimiz mumkin. Vaziyatning murakkabligi shundan iboratki, u bir necha o'n yillar davomida ushbu muammoni inkor qilish natijasidagina emas balki, mintaqada inson xayot faoliyatining deyarli barcha sohalari ekologik xatolar ostida qolganligi natijasida kelib chiqadi. Tabiatga qo'pol

va tavakkalchilik bilan munosabatda bo'lishga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Biz bu borada ancha tajribaga egamiz. Bunday munosabatda bo'lishga yo'l qo'yilsa tabiat buni kechirmaydi. Inson tabiatning xo'jayini degan soxta socialistik mafkuraviy davrda, ayniqsa Markaziy Osiyo mintaqasida ko'plab odamlar bir qancha xalqlar va millatlarning hayoti uchun fojeaga aylandi.

Ularni qirilib ketish yoqasiga, genofondining yo'q bo'lib ketishiga olib kelmoqda.

Afsuski bu jarayonlar O'zbekistonni ham chetlab o'tmadi. Bu erda mutaxassislarning baholashicha juda murakkab, aytish mumkinki xavfli vaziyat vudjudga kelmoqda. Bunday vaziyat nimadan iborat:

Birinchidan - urning cheklanganligi va uning sifati tarkibiy pastligi bilan bog'liqxavf to'xtovsiz ortib bormoqda. Markaziy Osiyo sharoitida er Ollohning bebaho in'omidir. U tom ma'noda odamlarni boqadi, kiyintiradi. Erlarning nihoyat darajada sho'rlanganligi O'zbekiston uchun ulkan ekologik muammodir. Radioaktiv ifloslanish ayniqsa katta xavf tug'dirmoqda.

Ikkinchidan - O'zbekistonning ekologik xavfsizlik nuqtai-nazaridan qargalganda, suv zahiralarining, shu jumladan, er usti va osti suvlarning keskin taqchilligi sabab hamda ifloslanganligi katta xavf tug'dirmoqda.

Uchinchidan - Orol dengizining qurib borishini aytish mumkinki, millat va milliy kulfat bo'lib qoldi. Orol dengizi muammosi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Lekin bu muammo sunggi 10 yil mobaynida xavfli darajada ortdi.

To'rtinchidan - havo bo'shlig'ining ifloslanishi ham Respublika ekologik xavfsizligiga solinadigan tahdiddir. Mutaxassislarning ma'lumotiga ko'ra har yili Respublikaning atmosfera havosiga 4 mln tonnaga yaqin zararli moddalara qo'shilmogda. Hozirgi paytda Respublikada istiqbolli, ya'ni atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy zahiralaridan oqiona foydalanish bo'yicha 2009 yilgacha mo'ljallangan davlat dasturi ishlab chiqilgan. Tabiatdan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilish sohasidagi butun faoliyat ana shu dastur asosida tashkil etilgan. Dasturda Respublikada ekologik vaziyatni sog'lomlashtirish, yirik shaharlar va

shahar agromelirasiyalar kabilarda ekologik keskinlikka barham berish yo'llari belgilangan.

Prezidentimiz I.A.Karimovning ta'kidlashicha «Ekologik xavfsizlikni kuchaytirishning hozirgi asosiy yo'nalishlaridan biri: Jonli tabiatning butun tabiat genofondini madaniy ekinlar va hayvonlarning yangi turlarini ko'paytirish hisobiga boshlang'ich baza sifatida saqlab qolish kerak».

Mehnatni muhofaza qilish bu qonuniy tizim hisoblanib sosial-iqtisodiy va texnikaviy hamda sanitariya-gigiena va tashkiliy chora tadbirlari bo'lib, odamlarning ish jarayonida sog'ligini va ishlash qobiliyatini saqlashga qaratilgan. Maxsus gigiena qoidalari bo'yicha hayvonlarni toza binolarda saqlash kerak.

8.1. Fuqarolar mudofasi

Fuqoro mudofasining asosiy vazifasini favqulotda xolatlar (sel, bo'ron, suv toshqini, tog' ko'chishi, atom quroli, zilzilalar) yuz berganda axolii chorva mollarini va qishloq xo'jaligi maxsulotlarining muxofazasiga qaratilgan.

Bo'lajak qishloq xo'jaligi mutaxasislari favqulotda xolatlarda o'zi bajaradigan ishlar bo'yicha nazariy va amaliy tajribalarga ega bo'lishi kerak.

YAdro quroli qo'llanilishi xavfi e'lon qilinganda quyidagilarga e'tibor qaratiladi:

1. Mavjud binolar va hayvonlarni himoya qilish uchun tayyorgarlik ko'rish;
2. Zudlik bilan hayvonlarni qanday himoya qilish yo'llarini o'rganib chiqish;
3. Mavjud bo'lgan em xashaklarni himoya qilish yo'llarini izlash;
4. Hayvonlarni radioaktiv nurlanish, kimyoviy va bakteriologik qurollar ta'siridan himoyalash uchun zarur bo'lgan birinchi darajali ishlarni amalga oshirish;
5. Hayvonlarni veterinariya ishlaridan o'tkazish kabi birinchi darajali tadbirlarni amalga oshirish;
6. Hayvonlar go'shti va maxsulotlarini veterinariya, sanitariya ekspertizasidan o'tkazib o'z xulosalarini berish kabi vazifalarni amalga oshirish lozim.

YAngi qirg'in quroli ishlatilganda uning oqibatlarini yo'qotish bo'yicha chorvachilikka iqtisoslashgan firmalarda fuqarolar mudofasi bo'yicha tegishli chora-tadbirlar o'tkaziladi. Zaharlangan hayvonlarga veterinariya ishlovi beriladi.

Chorvachilikda foydalaniladigan texnika vositalari, chorvachilik fermalari xududi, chorva binolari zararsizlantirilib, kasallangan hayvonlar davolanadi. Ularga tegishli profilaktik yordam ko'rsatiladi.

Yangi qirg'in quollariga uchragan hayvonlarni so'ydirish va go'sht maxsulotlarni veterinariya – sanitariya ekspertizasidan o'tkazish ham veterinariya xodimlarining fuqorolik burchidir.

Ko'pgina xavfli yuqumli zooantropozanoz – kuydirgi, burselyoz, tuberkulyoz kabi kasalliklarning qo'zg'atuvchilari organizmga zararlangan joylardan kiradi shuning uchun xam veterinariya xodimlarini doimo maxsus kiyimda, chenchikda qo'qonda, ruikali etikda va maxsus joylarda ishlash talab etiladi. Bunday kiyimlar inson hayotini xar xil kasalliklardan asrash uchun asosiy himoya vositasi hisoblanadi. SHunday ekan barcha ish olib boruvchilarni yuqorida ko'rsatilgan tartib qoidalarga qat'iy roya qilishi va doimo veterinariya nazorati ostida bo'lishi talab qilinadi.

9. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1 Aleshkevich, V.N. Yirik qoramol trixofitozi: monogra-

fiya / V.N. Aleshkevich. - Vitebsk: VGAVM, 2011. -- 270 b.

2 Zoantroponoz dermatomikozlarning (dermatofitoz) profilaktikasi va nazorati bo'yicha veterinariya va sanitariya qoidalari: Qoidalar

Belarusiya qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat vazirligi

10/26/2010da 65-raqam - Kirish tartibi: <http://mshp.gov.by/documents/>

texnik-aktlar / cdd2ce8a133d2286.html. - Kirish sanasi: 05.03.2016.

3 Kirpichenok, V.A. Veterinariya dezinfektsiyalash bo'yicha seminar: darslik / V.A. Kirpichenok, I.A. Yatusovich, V.U. Goridovets. - Minsk:

Urajay, 2000. -- 197 b.

4 Koroleva, V.P. Yirik qoramolda trixofitozning qo'zg'atuvchisini laboratoriya diagnostikasi / V.P. Koroleva // Bulletin VIEV. - Moskva, 1976. - Vol. 25: Veterinariya mikologiyasi.

5. Bakulov I.A. i dr. Metodiы borby s virusnymi bol jiv. M. 1976.



6. Veterinariya jurnali. 2009, 2010, 2011, 2012, 2013 yy.

7. Voronin U.S. i dr. Immunologiya M.2002.


8. Vyshchelevskiy S.M. Xususiy epizootologiya. M. 1961 g.
9. Djensen R.Makkey D.Bolezni K.R.S. M-1987. (perevod s angiliyskogo).
10. Yevdokimov P.D. Antibiotiki v veterinarii i Jivotnovodstve.Leningrad-1987.
11. Zooveterinariya jurnali. 2009, 2010, 2011, 2012, 2013 yy.
12. Internet ma'lumotlari <http://www.zoodrug.ru/topic284.html>
13. Konopopkin A.A. Epizootologiya M.1984.
14. Kolychev A.Ye. i dr. Mikrobiologiya Omsk. 2003.
15. Mixin. N.A. i dr. Bolezni molodnyaka M. 1976. s/x. jiv M.1993.
16. Parmanov M.P. va boshqalar. Epizootologiya. T.1996 y.
17. Parmanov M.P. va boshqalar. Epizootologiya. T. 2006 y.
18. Parmanov M.P. va boshqalar. Epizootologiya. T. 2007 y.
19. Parmonov M.P. va Farmonov N.O. Xususiy epizootoliya darslik. Sam.2010.
20. Polyakov A.A. «Veterinarnaya dezinfeksiya». M, Kolos. 1975god.
21. Polyakov A.A. Veterinariya dezinfeksiya. M. 1975.
22. Sarsikov A.X. Diagnostika gribovix bol. J. M. 1983.
23. Sodikov V.Ye. Profilaktika infeksionnyx bolezny KRS. M.1982.
24. Sosov R.F. Epizootologiya. M. «Kolos» 1974 g.
- 25 Labusova, N.I. Emlashdan keyingi immunitetni stimulyatsiya qilish qoramol trixofitozi: muallif. dis Kand veterinar fanlar: 16.00.03 / N.I. Labusova. - Minsk, 2004 .-- 21 b.
- 26 Medvedeva, E.A. Bialial sabab bo'lgan trixofitozni davolash trichofitonlar, griseofulvin va A / EA vitaminlari Medvedev E.D. Timofeeva // Dermatologiya va venerologiya byulleteni.- 1973. - №
- 27 Dermatofitlarni laboratoriya diagnostikasi bo'yicha ko'rsatmalar hayvonlarning changlari: GUV Belarusiya qishloq va qishloq xo'jaligi vazirligi, 2007 yil 27 noyabr / V.N. Aleshkevich [va boshqalar]; Vitebsk davlat veterinariya akademiyasi. - Vitebsk: VGAVM, 2008 .-- 18 b.

- 28 Murod Maaluf Beshara Toni. Yirik qoramolda trixofitozga qarshi emlashda alveozan va bacinilning samaradorligi / Murad
Maaluf Beshara Toni, V.N. Aleshkevich, P.A. Krasochko // Ilmiy izohlar o'quv yurtlari "Vitebsk davlat veterinariya akademiyasi": ilmiy va amaliy jurnal. - Vitebsk: VGAVM, 2015. –T. 51, yo'q. 2. - S. 62–65
- 29 Spesivtseva N.A. Hayvonlarning mikozlari va mikotoksikozlari / N.A. Spesivtseva. - Moskva: Selxozg'iz, 1960 .-- 455 p.
- 31 Xususiy epizootologiya: Oliy o'quvchilar uchun darslik
o'quv muassasalari / V.V. Maksimovich [va boshqalar]; tahririyati ostida V.V. Maksimov Minsk: Moliya vazirligi Axborot markazi,
- 32 Al-Ani, F.K. Yirik shoxli mollar va otlarda halqum qurti infeksiyasi / F.K. AlAni, F.A. Younes, O.F. Al-Rawashden // Acta Vet. - Berno, 2002. – Volv
- 33 Petrovich, S.V. Hayvonlar mikozi / S.V. Petrovich. - Moskva: Rosa-Gropromizdat, 1989 .-- 173 p.
- 34 Vitmolni sanitariya uchun ishlatish bo'yicha tavsiyalar
fermalar (komplekslar) va qayta ishlash korxonalarining binolari va sut uskunalari qayta ishlash / A.F. Jelezko [va boshqalar] - Vitebsk: VGAVM, 2011 .-- 22 b.
- 35 Dermatofitozni zararsizlantirish bo'yicha tavsiyalar
hayvonlar: tasdiqlangan GUV MAHiP RB 08/02/2007 / V.N. Aleshkevich [va boshq.] –Vitebsk: VGAVM, 2007. - 26 b.
- 36 Trikofitozning aniq profilaktikasi bo'yicha tavsiyalar
qoramol / V.N. Aleshkevich [va boshqalar]; Vitebsk shtati Veterinariya tibbiyot akademiyasi. - Vitebsk: UO VGAVM, 2007 .-- 19
37. internet ma'lumoti: www.rinderskript.net
- 38 <https://de.m.wikipedia.org>
39. R. Papini et al:high infection rate of trichophyton verrucosum in calves from Central Italy. In: Zoonoses and Public Health. 56 (2009),S. 59-64. PMID 18705659

ILOVALAR




Trixofitiya qo'zg'atuvchisining mikraskop ostida ko'rinishi.



Trixofitiya qo'zg'atuvchisining yunglar orasida mikroskopdagi ko'rinishi



Podadan ajratilayotgan buzog (yelka va bo'yin qismi zararlangan)



Nasli qoramollarning buzoqchalarida uchraydigan trixofitiya kasalligi



A vitaminoz kasalligi. Trixofitiyadan differensiyalash kerak.



Qoramollarda surunkali trixofitiya